ISSN 2181-9335

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI



2022
MAXSUS SON

JAMOAT XAVFSIZLIGI
ilmiy-amaliy jurnali

31 YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
DAVLAT MUSTAQILLIGINING
31 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

Muassis: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI	“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021 yil 30 sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING 31 YILLIGIGA

DJURAYEV R.M.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlari.. **3**

TURSUNOV B.R.

Jinoyat protsessida isbotlashning ayrim masalalari..... **7**

MAMAYUSUPOV S.D.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlarga oid davlat siyosatining ahamiyati **12**

RUSTAMBAYEV M.X.

Inson huquqini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari bo‘yicha ayrim mulohazalar..... **16**

PULATOV Y.S., USMONOV M.B.

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari **22**

AXROROV B.D., NARIMOV I.SH.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishning ayrim xususiyatlari..... **26**

USMANOVA M.A., AXMEDOVA M.T.

Yangi O‘zbekistonda inson manfaati bosh omil..... **33**

ISMAILOV I., NARZULLAYEV O.

Jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlashni takomillashtirishning ayrim masalalari..... **37**

MAXSADOV M.I., DJUMAYEV T.T.

Mustaqillik yillarida harbiy sohadagi qonun hujjatlarini shakllanishi va takomillashuvi..... **43**

MAMARASULOV D.X., SAMINJANOV M.A.

Jangovar tayyorgarlikni tashkil etishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash istiqbollari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismlari misolida)..... **52**

XURSANDOV A.S., MURADULLAYEV A.A.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarni siyosiy ijtimoiylashuvining ahamiyati..... **58**

ДОЛГОВА И.Е.

Защита прав женщин и установление гендерного равенства в Узбекистане за годы независимости..... **64**

BOYBO'TAYEV J.J., ASHUROV R.N.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya bo'lajak ofitserlarida boshqaruv fazilatlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari **70**

MIRZAYEV G.R.

Yangi O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasi..... **76**

АЛИМОВА Г.А.

Развитие военно-рекреационных территорий как фактор укрепления военной мощи независимого Узбекистана..... **84**

OLIMJONOV X.M.

Yangi O'zbekistonda islohotlar va qonuniylik istiqbollari **90**

ИСРАИЛОВА Н.А.

Правовое воспитание детей группы риска как важное условие их успешной адаптации к общественно-правовой жизни в обществе..... **94**

XO'JAMBERDIYEV F.K.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy ta'minlashda qonun hujjatlari normalarining o'rni va ahamiyati..... **104**

ГАРАНОВА В.А.

Социальная защищенность осужденных пенсионеров в Республике Узбекистан за годы независимости..... **113**

MANKAMOV D.N.

Yevropa davlatlarida yashil hududlarning huquqiy muhofazasi: tahlil va taklif..... **119**

XOLIQOV S.M.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari..... **125**

Djurayev Rustam Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, dotsent, general-mayor

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA INSONNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISH KAFOLATLARI

O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining hozirgi bosqichi shaxs va davlat o‘rtasida uyg‘un munosabatlarning yangi paradigmasini yaratish va shaxs manfaatlar ustuvorligini belgilash masalasi ilg‘or xorij tajribasini o‘rganilishini taqozo etadi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 16-maqsad sifatida “Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish” belgilanganligi [1] dastlabki tergov organlarining profilaktik faoliyatini amalga oshirishga oid ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning kompleks tartibda o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shaxsning huquq va erkinliklari bilan bog‘liq qonunchilikni jadal isloh qilish xalqaro huquq aktlarida mavjud bo‘lgan huquqiy normalarini implementatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda BMTning 1948 yildagi “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”, 1959 yildagi “Bola huquqlari Deklaratsiyasi”, 1966 yildagi “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi va “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro paktlar va “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida “gi Xalqaro paktlarga fakultativ protokollar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bugungi kunda shuncha xalqaro hujjat qabul qilingan bo‘lsa-da, inson huquqlari hali ham, ayniqsa huquqiy demokratik davlat shakllanishining qiyin davrida himoyaga muhtoj.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq, “ ...har bir inson ushbu deklaratsiya tomonidan e’lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga, hech qanday istisnosiz, qandaydir tarzda irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar ega bo‘lishi kerak”[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Mamlakatning hayoti bilan bog‘liq har bir qarorni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda xalq bilan bevosita muloqot asosida qabul qilamiz. Bizning faoliyatimizning asosi “Xalq davlat organlariga xizmat qilmaydi, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyilidir”, deb haqli ravishda ta’kidlagan [3].

Shundan kelib chiqqan holda, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta’minlash va himoya qilish davlat siyosati va davlat dasturlarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladigan keng ko‘lamli islohotlar va davlat va hokimiyat faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, “...davlat Konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlangan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlaydi”[4]. Bunday kafolatlashning asosiy maqsadi fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan to‘siqlarni bartaraf etish bilan bog‘liq majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashdir. “Kafolat” so‘zining etimologik ma’nosi “kafil bo‘lish”, “ishonch bildirish”ni anglatadi. Kafolatlarni mazmuni bo‘yicha yuridik (huquqiy), ijtimoiy-huquqiy (mafkuraviy), ijtimoiy-iqtisodiy (moddiy) turlarga bo‘lish mumkin:

Davlat inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini tenglik prinsipi orqali amalga oshirilishini ta’minlaydi:

inson qonunan erkin va ozod shaxsdir;

har bir inson va fuqaro o‘z huquq va erkinliklarini qonun bilan taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli;

inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatiladi;

inson huquqlarini himoya qilish obyektlari jismoniy shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqalar.

Shuni ta’kidlash kerakki, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish funksiyasini aynan davlat amalga oshiradi. Qonunchilik normalarida huquq va erkinliklardan to‘laqonli foydalanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish davlat huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilishni, ushbu huquqning konstitutsiyaviy kafolatidan adolat orqali huquqlarni samarali tiklashni kafolatlashi, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari, jamoat birlashmalari va boshqa belgilangan kafolatlar ustidan sudga shikoyat qilish huquqini to‘liq ifoda etadi.

Shuni tan olish kerakki, mustaqillik yillarida respublikada inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishni huquqiy qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratildi va unga inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish (himoya qilish) uchun konstitutsiyaviy-huquqiy, ma’muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy himoyalash mexanizmlari; ushbu himoyani ta’minlashning huquqiy protseduralari, huquqiy tartibga solish va nazorat qilishlarni kiritish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilganlar orqali va qonunchilik asosida inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish, ularni himoya qilish, fuqarolarning murojaatlari, shikoyatlari, arizalarini ko‘rib chiqish ustidan nazoratni amalga oshirish ta’minlanadi. Shu maqsadda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini to‘liq amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq qabulxonalari va virtual qabulxonasi tashkil etilib, ular to‘plangan muammolarni hal qilish, inson huquqlari va erkinliklariga qat’iy rioya qilishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash huquqiy demokratik davlatni barpo etishning eng muhim mezonidir. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash kafolatlari ham qonun bilan ta’minlanishi darkor. Shu sababli, bugungi kunda davlat organlarining “xalq manfaatlariga xizmat qilish” majburiyati to‘g‘risidagi Konstitutsiyada mustahkamlangan normani amalda ro‘yobga chiqarish juda muhim va dolzarb muammoga aylanmoqda.

Shuni yodda tutish kerakki, jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson huquqlari va erkinliklarini cheklash har qanday davlatning eng dolzarb muammolaridan biridir. Jamiyat hayoti jarayoni muqarrar ravishda davlatdan kafolatlangan asosiy qonun va xalqaro normalar, inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklari hisobiga chora ko‘rishni talab qiladigan vaziyatlarga duch keladi.

Shuning uchun shuni ta’kidlash kerakki, jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxs huquq va erkinliklarini cheklash jamiyatdagi erkinlik darajasini tartibga solishning bir usuli hisoblanadi, ammo uni amalga oshirishda erkin talqin qilish va suiiste’mol qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shunday qilib, davlat tomonidan inson huquqlari cheklovlaridan foydalanishning asosiy talabi – ularni qo‘llash asoslari, tartibi va chegaralarini aniq tartibga solinishidir.

Ushbu muammoning jamiyat uchun dolzarbligini shubha ostiga qo‘yish qiyin, chunki ba’zi mamlakatlarda sodir bo‘layotgan voqealar jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari milliy ahamiyatga ega ustuvor yo‘nalishlarning yangi tendensiyalarini namoyish etadi.

Shu bilan birga, inson huquqlari va erkinliklarini cheklash mezonlari (shartlari) nima degan savolga aniq javob yo‘q. Ehtimol, buning sabablaridan biri huquqiy fanda, huquqni qo‘llash amaliyotida fundamental terminologiyani shakllantirishga, shu jumladan huquq va erkinliklarni cheklash kabi tushunchalarga umume’tirof etilgan, yagona yondashuvning yo‘qligi sabablidir. Shuni yodda tutish kerakki, xalqaro miqyosda ham yagona yondashuv ishlab chiqilmagan.

Shunday qilib, eng taniqli xalqaro huquqiy hujjatlarda huquq va erkinliklarning

cheklanishini bevosita yoki bilvosita aks ettiruvchi bir nechta tushunchalar qo‘llaniladi. Masalan, inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida (29-moddaning 2-bandi), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktda (4-modda) va boshqalarda “cheklash” atamasi qo‘llaniladi; Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktda (4-modda) davlatlarning o‘z fuqarolari oldidagi majburiyatlari to‘g‘risida “o‘z majburiyatlaridan voz kechish” atamasi qo‘llaniladi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasida bir vaqtning o‘zida ikkita atama qo‘llaniladi: “cheklovlar” (9-11, 18-moddalar) va “majburiyatlarga rioya qilishdan chekinish” (15-modda). Shunday qilib, kun tartibidagi asosiy muammolardan biri quyidagicha shakllantirilishi mumkin: jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun inson huquqlarini cheklashning maqbulligi (qonuniyligi) mezonlarini qanday aniqlash mumkin?

Shuni ta’kidlash kerakki, jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlarini amalga oshirish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

-jamoat xavfsizligini ta’minlash tartibi va mexanizmlarini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani rivojlantirish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat, ayniqsa muhim, toifalangan va boshqa obyektlar, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini muhofaza qilishni takomillashtirish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlashda huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamkorligini o‘rnatish va rivojlantirish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalarini bajarayotgan xodimlarning psixologik tayyorgarligini takomillashtirish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlaydigan bo‘linmalar tizimi va tuzilishini zamonaviy voqelik va muammolarga, shuningdek yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha masalalarni hal etish;

- eng muhimi, jamoat xavfsizligini ta’minlaydigan har bir xodimga har bir insonga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini tan olish va hurmat qilish hissi va ko‘nikmalarini singdirish.

Shunday qilib, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi bo‘linmalar faoliyatining muvaffaqiyatli isloh qilinishi nafaqat ushbu sohaning alohida tarkibiy qismlariga, xususan, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Qurolli kuchlar, favqulodda vaziyatlar va boshqa davlat organlariga qaratilgan chora — tadbirlar bo‘lib, ularning xodimlarining samaradorligi va professionalligini oshirishga qaratilgan. Fuqarolar va jamoat xavfsizligini ta’minlaydigan bo‘linmalar o‘rtasida ishonchli munosabatlarni o‘rnatish uchun jamoat xavfsizligini ta’minlash xizmatlarini taqdim etilishini takomillashtirish, ushbu xizmatlarning sifatini oshirish va ularni boshqarish usullarini takomillashtirish zarur.

Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlarini amalga oshirish ushbu faoliyatning mohiyati va mazmunining samaradorligini oshirishni, shuningdek, inson huquqlari buzilishining barvaqt oldini olishga qaratilgan samarali tizimni shakllantirishni talab qiladi. Bu esa asosiy e’tiborni yakuniy maqsadga qaratishni talab qiladi, mazkur maqsad esa odamlarning xavfsizligini ta’minlash bo‘lib, bu o‘z navbatida inklyuziv muloqot va odamlar va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini talab qiladi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, qonun ustuvorligini so‘zsiz ta’minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlarini amalga oshirishning samarali shakllarini joriy etish taklif etiladi:

- jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik islohotlarini amalga oshirishni davom ettirish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlaydigan har bir xodim uchun inson qonunlari, huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan

munosabatda bo‘lish organlarini shakllantirish;

- jamiyatda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik muhitini yaratish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlash ustidan jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish;

- shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzilishining har qanday shaklini oldini olish va yo‘l qo‘ymaslik;

- ommaviy axborot vositalari vakillarining qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini amalga oshirish chora-tadbirlarini yoritishda ishtirokini kengaytirish;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish.

Mazkur choralarning ro‘yobga chiqarilishi O‘zbekistonda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash faoliyatida shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining himoyasini darajasini ortishiga va tizimning samaradorligi rivojlanishiga xizmat qiladi.

Djurayev R.M. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari

Maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlariga amal qilishning dolzarb masalalari muhokama qilingan. Konstitutsiya, xalqaro huquq va amaldagi qonunchilik normalarini tahlil qilish asosida shaxs huquq va erkinliklarini ta’minlanishni takomillashtirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, jamoat xavfsizligi, qonuniylik, huquq ustuvorligi, jamoat xavfsizligini ta’minlash, shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlari.

Джураев Р.М. Гарантии защиты конституционных прав и свобод человека при обеспечении общественной безопасности

В статье рассмотрены актуальные вопросы реализциии гарантий конституционных прав и свобод личности при обеспечении общественной безопасности. На основе анализа норм Конституции, международно-правовых актов и действующего законодательства рассмотрены вопросы обеспечения прав и свобод человека при обеспечении общественной безопасности и сформулированы соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: конституция, конституционные права и свободы личности, общественная безопасность, законность, верховенство права, обеспечение общественной безопасности, гарантии конституционных прав и свобод.

Djuraev R.M. Guarantees of protection of human constitutional rights and freedoms in the provision of public safety

The article examines topical issues of implementation and guarantees of constitutional rights and freedoms of the individual while ensuring public safety. On the basis of an analysis of the norms of the Constitution, international legal acts and current legislation, the issues of ensuring human rights and freedoms while ensuring public safety were considered, and appropriate conclusions and proposals were formulated.

Key words: constitution, constitutional rights and freedoms of the individual, public security, legality, rule of law, ensuring public security, guarantees of constitutional rights and freedoms.

Tursunov Botir Rajabovich,
professor, general-mayor

JINOYAT PROTSESSIDA ISBOTLASHNING AYRIM MASALALARI

Mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan olib borilayotgan sud-huquq islohotlari jinoyat-protsessual qonunchilikning liberallashuvi hamda jinoiy-ijtimoiy munosabatlarda demokratik institutlarning barqarorlashuviga olib kelmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashish qanday darajada va qaysi usullar bilan amalga oshirilishi jamiyat hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga bevosita ta’sir etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashning to‘g‘ri tashkil etilishi, jinoyatlarni oldini olish va fosh qilish, jinoyat sodir etgan shaxslar uchun jazoning muqarrarligini ta’minlash, bu boradagi barcha kuch va vositalarni ishga solish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish kabi bir qator tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

Jinoyat ishlarini dastlabki tergovni amalga oshirmay turib sudda ko‘rish mumkin emas, chunki jinoyat sodir etganlikda aybdorlikni ko‘rsatuvchi dalillarni qonunda belgilangan tartibda to‘plash, bu shaxsga ayb e’lon qilish zarur.

Dastlabki tergov jinoyatni tez va to‘liq ochish, uni sodir etgan shaxsni fosh qilish va ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, jinoyatni bartaraf etish, uning sodir etilishiga yordam beruvchi sabab hamda shart-sharoitlarni aniqlash va yo‘q qilish, shuningdek, jinoyat tufayli yetkazilgan zararning qoplanishini ta’minlash choralarini ko‘rish maqsadida tergovchi, surishtiruvchi ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlashga asos bo‘ladigan dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash borasidagi faoliyatidir.

Jinoyat ishiga oid fakt va holatlar uni tergov qilish va ko‘rib chiqishda ularni isbotlash orqali aniqlanadi. Shu bois isbotlanadigan narsa isbotlash predmetining o‘zidir. Isbotlash predmeti – tekshirilayotgan voqeaning xossalari va aloqalarini ifodalovchi hamda jinoyat ishini to‘g‘ri hal qilish va har bir aniq vaziyatda sudlov vazifalarini amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan holatlar tizimidir. Ushbu holatlar protsessual isbotlash yo‘li bilan, ya’ni qonunda nazarda tutilgan vosita va usullar yordamida aniqlanadi. Isbotlash predmetining aniqligi tekshiruv yo‘nalishi va doirasini belgilab beradi. Muayyan jinoyat ishi bo‘yicha isbotlash predmetini to‘g‘ri aniqlash tergov organlari va sud faoliyatining maqsadga yo‘nalgan bo‘lishini, ish holatlari to‘liq, har tomonlama va xolisona tekshirilishini ta’minlashning muhim shartidir. Jinoyat ishi to‘g‘ri tekshirilishi va ko‘rib chiqilishi uchun jinoyatning xususiyatini belgilovchi va jinoyat ishi bo‘yicha tekshiruv predmeti bo‘lgan holatlarni isbotlash lozim. Ushbu holatlar isbotlash yo‘li bilan, ya’ni qonunda belgilangan vosita va usullar yordamida aniqlanadi.

Qadimgi Rim yuristi Yulian Pavel quyidagi qoidani ishlab chiqqan: “Isbotlash majburiyati inkor qilayotganda emas, balki tasdiqlayotganning zimmasidadir” (ei incumbit probatio lui dicit, non qui negat)[1].

Jinoyat-protsessual kodeksning 86-moddasida: “Isbot qilishni tergovga qadar tekshiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud amalga oshiradi”, – deb aniq belgilab qo‘yilgan. Faktlar xilma-xil bo‘lib, ularni aniqlash har bir ishning ko‘plab aniq holatlariga bog‘liq, ammo, shu bilan birga, ularning jinoyat ishi bo‘yicha doirasi aniq, ya’ni tergovchi, prokuror nimani isbotlash lozimligini taxminan biladi.

Jinoyat protsessida tergovchi va surishtiruv organining protsessual funksiyalari masalasida yuridik adabiyotda turli fikrlar aytilgan. Masalan, N.N. Polyanskiy tergovchining faoliyati tabiatan ayblov faoliyatidir, deb hisoblaydi[2]. Ushbu nuqtai nazar tergovchining asosiy vazifasi jinoyatni ochish va uni sodir etgan shaxsni aniqlashdan iborat ekanligi bilan asoslanadi. Tergovchining butun faoliyati ushbu shaxsning aybini isbotlashga qaratilgan.

M.S. Strogovich asoslagan boshqa bir nuqtai nazar shundan iboratki, tergovchining faoliyatida bir vaqtning o‘zida ayblov, himoya va hatto ishni hal qilishdan iborat (ya’ni sudning) funksiyalari yonma-yon mavjud [3]. M.A. Cheltsov ham xuddi shunday fikrda bo‘lgan[4].

Qonun tergovga qadar tekshiruvni olib borish vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, tergovchi va surishtiruv organidan jinoyatni tezlik bilan ochish, uni sodir etishda aybdor shaxslarni aniqlash va topish borasida barcha zarur choralarni ko‘rishni talab qiladi.

Tergovchi surishtiruv organlariga ayrim tergov harakatlarini amalga oshirishni topshirganda ularning zimmasiga isbot qilishdan iborat o‘z vazifasini yuklay olmaydi. Surishtiruv organlariga, qoida tariqasida, surishtiruv organining tezkor qidiruv yoki ma’muriy faoliyati bilan bog‘liq harakatlarini amalga oshirish topshiriladi. Tergovchi agar bir qator tergov harakatlarini bajarishga imkoni bo‘lmasa, ularni o‘tkazishni tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv organlariga topshirishi mumkin.

Biroq jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida masalaning ushbu jihati yetarlicha yoritilmagan. Nazarimizda, qonunda taqiqlanmagan bo‘lsa ham, tergovchilar tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv organlariga ish uchun muhim bo‘lgan va takrorlab bo‘lmaydigan (tanib olish uchun ko‘rsatish va sh.k.) yoki faqat tergovchining vakolatiga kiradigan (ayb e’lon qilish, ayblanuvchini so‘roq qilish, ayblanuvchi va boshqa shaxslarni yuzlashtirish kabi) harakatlarni yuritish vazifasini topshirishi maqsadga muvofiq emas. Amaliyotning ko‘rsatishicha, ko‘pincha tergovchi tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv organlariga tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazishni topshiradi. Ushbu topshiriqlar tergov harakatlarini o‘tkazish haqidagi topshiriqlardan farq qiladi. Tergovchi faqat protsessual qonunlarda tartibga solingan topshiriqlarnigina berishi kerak, chunki ushbu qonun normalari jinoyat ishini yuritishda shaxsning kafolatli himoya qilinishini ta’minlaydi va jinoyat protsessida inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qilishning samarali mexanizmlari mavjuddir.

Tezkor qidiruv faoliyati, albatta, qonunlar (buyruqlar, yo‘riqnomalar) bilan tartibga solinadi, biroq u protsessual doira bilan cheklanib qolmaydi. Shu bois, tezkor qidiruv ishining xususiyatini inobatga olib, aytish mumkinki, u ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashning unchalik ishonchli kafolatlariga ega emas. Shu bois, jinoyat protsessida tezkor ma’lumotlar doimo yordamchi ma’lumot sifatida qaraladi.

Jinoyat ishini tergov qilish jarayonida tergovchini faqat tezkor qidiruv ishining natijalari, ya’ni tergov harakatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot qiziqtiradi. Shu o‘rinda tergovchi ishni tergov qilish davomida tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv organlaridan qanday axborotni so‘rab olishi kerak, degan savol tug‘iladi. Umumiy qilib aytish mumkinki, tergovchi tergovga qadar tekshiruv surishtiruv organidan isbotlash predmetiga bevosita taalluqli bo‘lgan axborotnigina so‘rab olishi kerak. Ushbu axborot mavjud dalillarni tekshirish va yangilarini to‘plashga ko‘maklashishi lozim. Biroq tergovchi tezkor ish usullari va shakllariga aralashishga haqli emas. Umuman, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor qidiruv faoliyatini qonun bilan tartibga solish masalasi allaqachon pishib yetilgan.

So‘nggi yillarda yuridik adabiyotda sudning jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlash jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, tomonlarning tortishuvi prinsipi nuqtai nazaridan qaraganda uning vakolatlar doirasi va faollik doirasi, jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanadigan haqiqatning xususiyati va mazmuni haqida keskin bahs-munozaralar bormoqda.

Ushbu masala bo‘yicha bildirilayotgan mulohazalar har xil, ba’zan butunlay qarama-qarshi. Bir qator mualliflar sud jinoyat ishi bo‘yicha isbotlashni amalga oshirishi kerak, deb hisoblasalar, boshqa mualliflarning fikricha, odil sudlovda sudning isbotlashdagi faolligi protsessdagi tortishuv prinsipi bilan sig‘ishmaydi, shu bois sud majlisida sudning o‘rni tomonlarning fikrlari va dalillarini tinglash hamda ular asosida oxirgi qaror chiqarish bilan cheklanishi kerak [5].

Masalan, N. Grigorevning yozishicha,

“tortishuv prinsipiga muvofiq, sud qarorni faqat tomonlar taqdim etgan material asosida chiqaradi, hattoki, sudning fikricha, ular ishning barcha holatlarini to‘liq ifodalamasa ham”[6].

Shunday qilib, N. Grigorev sudni jinoyat ishi bo‘yicha isbotlash majburiyatidan xalos qilib, undan ilgariroq “yurist haqiqatni aniqlash uchun emas, balki sud muhokamasining natijalariga belgilangan tarzda erishish uchun javob beradi”, zero “dalillar yordamida haqiqat aniqlanmaydi”, balki “muayyan xulosalar asoslanadi”[7], deb aytgan S.A. Pashinning fikriga to‘liq qo‘shiladi. Yu.K. Orlovning o‘z qarashlarini sud jinoyat bo‘yicha isbotlashni qandaydir mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, ayblovchi va himoyachining bilimdonligi (layoqatliligi, vakolatliligi), mentalitetidan kelib chiqib, isbotlashi kerak, degan fikr bilan o‘z qarashlarini dalillashga intilishi, nazarimizda, muvaffaqiyatsiz chiqqan[8].

Mamlakatimizda sud-huquq islohotining yanada rivojlantirilishi borasida ko‘rilayotgan choralar, shubhasiz, sudning mustaqilligini ta’minlashga, dastlabki tergov organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, advokaturaning ahamiyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi, bu esa pirovard natijada jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish va kafolatlashni kuchaytirishga qaratilgan.

Ishni to‘g‘ri hal qilish uchun, birinchi navbatda, isbotlash predmetini aniq belgilab olish zarur, chunki tergovchi dalillarni tekshirish bo‘yicha butun ishini ana shu asosda qura olishi kerak. Agar isbotlash predmeti aniq belgilanmagan bo‘lsa, isbotlash jarayonining o‘zi buziladi, chunki isbotlanadigan holatlarni tanlashda aniq mo‘ljal bo‘lmaydi. Aks holda ishga aloqasi yo‘q holatlar tekshirilishi mumkin, isbotlash jarayonining o‘zi esa cho‘zilib ketadi va sansalorlik yuz beradi.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, isbotlash predmeti doimiy, qotib qolgan narsa emas. Axir, isbotlash jarayonida uning predmeti o‘zgarishi, kengayishi yoki, aksincha, aniqlashishi va torayishi mumkin, chunki tergov davomida yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan holatlar paydo bo‘lishi yoki, aksincha, o‘z tasdig‘ini topmagan holatlar tushirib qoldirilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida (JPKning 81-moddasi) aniq belgilab qo‘yilganidek, “ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni tergovga qadar tekshiruvni olib borish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsning, surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma’lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi”.

I.M. Luzgin va M.N. Nokerbekov jinoyat protsessida isbotlash predmetidan tashqari “bilish predmeti” ham mavjud deb hisoblaydilar[9]. Ushbu mualliflar o‘z fikrlarini jinoyat ishini tergov qilish jarayonida tekshirilayotgan hollarning hammasi ham isbotlash predmetiga kirmaydi, ular muayyan ma’noda yordamchi xususiyatga ega bo‘ladi, deb tasdiqlamoqchi bo‘ladilar. Ammo ular jinoyat-protsessual qonunchilikda “bilish predmeti” tushunchasi yo‘qligini inobatga olmaydilar. Ushbu ibora mavhum xususiyatga ega bo‘lib, falsafiy kategoriyalardan kelib chiqadi va tekshirilayotgan barcha holatlarni qamrab oladi. Mazkur yordamchi faktlar esa yuridik adabiyotda «dalil bo‘luvchi faktlar» deb nomlanadi.

Isbotlash jarayonida, avvalo, ishni hal qilishda qonuniylikka rioya etish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash kafolati sifatida dalillarning maqbulligi va aloqadorligi nuqtai nazaridan tekshirishga e’tibor beriladi.

Yuridik adabiyotda agar tezkorqidiruv tadbirlarining o‘zi qonunda belgilangan barcha qoidalarga rioya etgan holda o‘tkazilgan va uning natijalari mustahkamlangan bo‘lsa, bunday yo‘l bilan olingan faktik ma’lumotlar ba’zan isbotlashda foydalanilishi mumkinligi, ammo dalillarning boshqa turiga (manbai bo‘yicha) taalluqli qilib foydalanilishi mumkinligi haqida fikrlar uchraydi. Masalan, jinoyat ishi qo‘zg‘atilguncha so‘roq qilingan shaxsning ko‘rsa-

tuvlari ariza yoki tushuntirish sifatida qaralishi mumkin: “ayblanuvchi”ning dastlabki tergov o‘tkazilishi shart bo‘lgan ish yuzasidan surishtiruv o‘tkazayotgan shaxsga bergan ko‘rsatuvlari “ayblanuvchi”ning ko‘rsatuvlari deb qaralishi mumkin[10].

Biroq “qonunda belgilangan manbadan olingan, lekin undagi axborotni ushbu tergov harakatini yuritish huquqiga ega bo‘lmagan subyekt protsessual jihatdan qayd etgan dalil mayabul dalil sifatida tan olinishi mumkin emas”[11], – deb hisoblagan N.V. Sibilyovaning fikriga qo‘shilish lozim.

Dalilni maqbul dalil deb tan olish shartlaridan biri ularning jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida bevosita ko‘rsatilgan manbalardangina olinishi kerakligi hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida ushbu manbalarning ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, guvoh va jabrlanuvchining ko‘rsatuvlari ana shunday manbalar bo‘lishi mumkin. Agar dalil qonunda nazarda tutilmagan manbadan olingan bo‘lsa, u nomaqbul dalil hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, dalillar faqat qonunda nazarda tutilgan manbalardan olinishi mumkin. Bir qator hollarda qonunda dalillarni olish manbai aniq ko‘rsatib qo‘yiladi. Masalan, Jinoyat-protsessual kodeksning 173-moddasida qaysi ma’lumotlar faqat ekspertiza o‘tkazish yo‘li bilan olinishi mumkinligi aniq ko‘rsatib qo‘yilgan. Ularga o‘lim sabablari va yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati, aqli hushi joyida ekanligi shubha tug‘dirganda – ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining ruhiy holati haqidagi va boshqa ma’lumotlar kiradi.

Jinoyat-protsessual qonunda dalillarni to‘plashning muayyan tartibi belgilangan. Isbotlash bo‘yicha amalga oshiriladigan harakatlarning protsessual shakli aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, uning har bitta buzilishi jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari buzilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартошек М. Римское право: понятия, термины, определения. – С. 341.
2. Полянский Н.Н. К вопросу о состязательности в стадии предварительного расследования Соц. законность. – 1938. – № 4.
3. Строгович М.С. Курс уголовного процесса. – Т. 1. – М., 1968. – С. 226.
4. Челтсов М.А. Уголовный процесс. – М., 1948. – С. 157.
5. Кореневский Ю. Нужна ли суду истина? // Российская юстиция. – 1994. – № 5. – С. 20–22; Тенсов Е.С., Кузмина О.В. Объективная истина и суд присяжных // Государство и право. – 1994. – № 11. – С. 132–140; Эршов В.В., Халдиев Л.С. Проблемы рассмотрения уголовных дел судом присяжных // Государство и право. – 1994. – № 2. – С. 75–81.
6. Григорева Н. Принцип уголовного судопроизводства и доказательства // Российская юстиция. – 1995. – № 8. – С. 40.
7. Пашин С.А. Проблемы доказательственного права Судебная реформа: юридический профессионализм и проблемы юридического образования. – М., 1995. – С. 312–322.
8. Орлов Ю.К. Основы теории доказательств в уголовном процессе. – М., 2001. – С. 18–19.
9. Лузгин И.М. Расследование как процесс познания: Автореф. ... дис. д-ра юрид. наук. – М., 1968; Нокербеков М. Н. Предмет доказывания в уголовном процессе: Автореф. ... дис. канд. юрид. наук. – Алма-Ата, 1964. – С. 10.
10. Теория доказательств в уголовном процессе. – С. 276–277.
11. Сибилева Н.В. Допустимость доказательств в уголовном процессе. Киев, 1990. – С. 31.

Tursunov B.R. Jinoyat protsessida isbotlashning ayrim masalalari

Ushbu maqolada jinoyat ishiga oid faktlar va holatlarni protsessual isbot qilishning ahamiyati, shuningdek dastlabki tergov jarayonida jinoyatni tez va to‘liq ochishdagi o‘rni yoritilishi bilan bir qatorda mavjud qonunchilikdagi ayrim yechimini kutayotgan masalalar ham tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat ishi, jinoyat protsessi, isbot qilish, dastlabki tergov, dalil, tergovchi, surishtiruvchi, texkor qidiruv faoliyati, tergov harakatlari.

Турсунов Б.Р. Некоторые вопросы доказывания в уголовном процессе

В данной статье раскрыто значение процессуального доказывания фактов и обстоятельств, относящихся к уголовному делу, а также его роль в быстром и полном расследовании преступления в процессе предварительного следствия, а также изучены некоторые вопросы действующего законодательства, требующие решения.

Ключевые слова: уголовное дело, уголовный процесс, доказывание, предварительное расследование, доказательство, следователь, следственная деятельность, следственные действия.

Tursunov B.R. Some issues of proof in criminal proceedings

In this article, the importance of procedural proof of facts and circumstances related to the criminal case, as well as its role in the quick and complete investigation of the crime in the preliminary investigation process, as well as some issues that are waiting for a solution in the existing legislation, are studied.

Key words: criminal case, criminal process, proof, preliminary investigation, evidence, investigator, investigator, investigative activity, investigative actions.

Mamayusupov Sarvar Dexkanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
qo‘mondoni o‘rinbosari, polkovnik

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AHAMIYATI

Yoshlar ta’lim-tarbiyasi barcha zamonlarda eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa biz yashayotgan XXI asrda yoshlarga qaratiladigan e’tibor darajasi mamlakat taraqqiyoti poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatini faol amalga oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi natijasida qator muhim natijalarga erishilmoqda. Zero Renessans poydevori yangicha fikrlaydigan, noyob qobiliyat va bilimlarga ega, zamonaviy imkoniyatlardan oqilona foydalana biladigan yoshlar ajdodlar merosiga munosib yoshlar bilan birga barpo etiladi.

O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning yoshlar forumida ishtiroki, unda yigit-qizlar bilan samimiy muloqoti va tashabbuslari yoshlar siyosatida kelgusi taraqqiyotni belgilashda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidor va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish maqsadida muhim huquqiy mezonlar yaratildi. Ayniqsa so‘nggi yillarda “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri, Harakatlar Strategiyasi va boshqa hujjatlar asosida yoshlar siyosatiga yangicha qarash shakllanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda yoshlarga sifatli ta’lim berish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Davlatimiz rahbarining yoshlarga qarata aytgan “ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!”, degan so‘zlari barchani cheksiz to‘lqinlantirdi.

Yoshlar ta’lim-tarbiyasida maktab masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Atoqli jadid ma’rifatparvar bobomiz Munavvarqori Abdurashidxonov, maktab masalasida fikr bildirib, “...maorif va madaniyat bog‘chasining birinchi darvozasi maktabdir. Yer yuzidagi maorifli millatlarning har birlari madaniyat bog‘chasiga shu darvozadangina kirmishlar. Maktab ochib qo‘yaqolg‘on ila ish bitmasligi, balki uning taraqqiy va davomi uchun moddiy va ma’naviy yordam, g‘ayrat va himmatlar lozim ekanligi anglashilmishdir”, deb ta’kidlagan edilar. Mazkur iboraning amaliyoti sifatida oxirgi vaqtda mamlakatimizda maktab ta’limiga ko‘rsatilayotgan e’tibor natijasi o‘laroq ularning infrastrukturasi tubdan o‘zgarmoqda. Maktab ta’limi sohasida mutlaqo yangi tizim – Prezident va ijod maktablari, matematika, kimyo, biologiya fanlari bo‘yicha maxsus maktablar tashkil etilmoqda. Yoshlarimizga IT texnologiyalarni chuqur o‘rgatadigan ta’lim maskanlarining soni tobora ko‘payib bormoqda. Mazkur harakatlar samarasi sifatida so‘nggi uch yilda mamlakatimiz yoshlari nufuzli xalqaro tanlov va musobaqalarda besh yarim mingtaga yaqin sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi.

Bugungi kunda yurtboshimiz rahbarligida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz tarixida hech qachon bo‘lmagan. Bugungi kunda respublikada 114 ta ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ularning 21 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Ayniqsa so‘nggi uch yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari tashkil etildi.

Ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada kuchaytirish zamon talabi ekanligini hisobga olgan holda, 2021 yildan boshlab maktab o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida “Bo‘lajak olim” tanlovini tashkil

qilish orqali yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startap loyihalariga 50 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirish tashabbusi iqtidorlarni vaqtida izlab topish, ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun qo‘yilgan tamal toshidir.

O‘zbekiston rahbari yoshlarga murojaat qilib, “Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko‘rgan to‘siq va qiyinchiliklarni ko‘rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib, voyaga yetyapsizlar. Yuksak maqsadlar yo‘lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lishingiz kerak” deb aytgan da’vati har bir yosh ongu-shuuriga kirib borib, unda vatan kelajagi uchun mas’uliyat va daxldorlik tuyg‘ularini singdirishda xizmat qilishi darkor.

So‘nggi yillarda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Yoshlarning biznes tashabbuslari, startap, g‘oya va loyihalarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish va qo‘llab quvvatlash, band bo‘lmagan yigit-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘qitish, shuningdek ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali bandligini ta’minlashga qaratilgan dastur ijrosi natijasida yoshlarning biznes loyihalari moliyalashtirildi, eng muhimi yangi ish o‘rinlari yaratildi. Shuningdek respub-likamizning barcha hududlarida yigit-qizlarni ish bilan ta’minlashga mo‘ljallangan “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari hamda “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari barpo etildi.

Yoshlar forumida ta’kidlanganidek, “Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz”.

Darhaqiqat, xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni asrab-avaylab keladi. Oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat barqaror bo‘ladi. Bir narsani unutmasligimiz lozim: xonadonlarimizdagi tinchlik-totuvlik, avvalo, oiladagi sog‘lom muhitga, mustaqil hayot ostonasida turgan qizlarimizni oilaviy turmushga tayyorlash bilan bevosita bog‘liq. Shu boisdan ham mazkur tizimning uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha Prezident tashabbuslari jamiyat negizini mustah-kamlashda muhim yordam beradi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlash va yosh oilalarni uy-joy bilan ta’minlash maqsadida o‘tgan uch yil mobaynida mamlakatimiz bo‘yicha 5 ming 100 tadan ortiq namunali yosh oilaga arzon uy-joylar qurilib, qariyb 200 milliard so‘m miqdorida boshlang‘ich badal pullari to‘lab berildi. Buning mantiqiy davomi sifatida 2021-2023 yillarda Yoshlar uylarini qurish dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish vazifasi belgilandi. Shu bilan birga kelgusida ikki va undan ortiq farzandi oliy o‘quv yurtida shartnoma asosida o‘qiyotgan oilalarga imtiyozli ta’lim krediti berish yo‘lga qo‘yilishi, yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida har bir viloyatga 100 milliard so‘mdan kredit mablag‘lari yo‘naltirilishi sohaga doir bir qator muammolarni oldini olishga xizmat qiladi.

Turkiston jadidchiligi otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Har bir millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o‘z millatining oyandasi (kelajagi) uchun yo‘l ko‘rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun pand va nasihat berur”, deb ta’kidlagani zamirida yoshlarga zamonaviy bilim berish orqali ularni o‘z sohasining professional kadrlari etib tarbiyalash kabi muhim vazifa yotadi. Zero, bugun mamlakatimiz ko‘zi yongan, yuragi yongan yoshlarga, azmu-shijoatda barqaror yoshlarga, yosh kadrlarga har qachongidanda muhtoj. Boisi, boshlagan buyuk maqsadlarni aynan ular bilan birga amalga oshirilishi sir emas. Prezidentimiz ham hududlarga borganda ko‘proq yoshlar bilan uchrash-ganda, ular bilan gaplashganda doimiy ravishda shu fikrni takrorlab keladi.

Ta’kidlash lozimki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida yoshlarga nafaqat jamiyatning eng katta va muhim qatlami, balki islohotlarning, taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Shu bois ularni maqsadli o‘qitish va sifatli va daromadli ish bilan ta’minlash masalasi ham ustuvor hisoblanadi. O‘zbekiston Prezidenti ta’kidlab o‘tganlaridek, tashkilotlar yosh mutaxassisni ishga olishdan manfaatdor bo‘lishi kerak. Shu sababli, yosh kadrlar uchun belgilangan sinov muddati davrida ish beruvchilarga imtiyozlar taqdim etishi ham o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga, qars ikki qo‘ldan chiqishiga ko‘mak beradi.

Bugun o‘z tengdoshlariga ibrat bo‘layotgan, jamiyatdagi yangilanishlar jarayonida faol ishtirok etayotgan yoshlarimiz bilan bir qatorda hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan, adashgan, ko‘makka muhtojlari ham yo‘q emas. Shuning uchun yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan qatlami bilan mas’ullar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatishga xizmat qiladigan “Yoshlar murojaati” elektron platformasini yaratish haqidagi Prezident tashabbusi yuqoridagi ayrim muammolarni tizimli bartaraf etishga xizmat qiladi.

Muxtasar aytganda Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlar siyosati borasida kelajakdagi maqsad va muddaolarimizni belgilab berishga xizmat qiladi. Yoshlar ham buning mas’uliyatni teran anglashi, ilmu-ma’rifatda shijoatli bo‘lib, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga tayyor bo‘lishlari darkor. Zero Uchinchi Renessans poydevorini mard va oliyjanob xalqimizning mehnatsevar, tashabbuskor yoshlari bilan birga barpo etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи. – 2017. – 20 сентябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22.12.2017. http://press-service.uz/uz/lists/view/1371

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги «Адолат» нашриёти, 2017. – Б.112.

4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. Янги Ўзбекистон. 2021 йил 18 август.

5. Мирзиёев Ш.Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъит билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: «Ўзбекистон» 2017. Б.324.

6. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. http://uza.uz.

Mamayusupov S.D. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlarga oid davlat siyosatining ahamiyati

Mazkur maqola O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarga bag‘ishlangan. Maqolada yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar tahlil qilinib, taklif va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Uchinchi renessans, yoshlar, Yangi O‘zbekiston, yoshlar siyosati, yoshlar bunyodkorligi, yoshlar daftari.

Мамаюсупов С.Д. Важная роль государственной молодёжной политики в развитии Нового Узбекистана

Данная статья посвящена государственной молодёжной политике Узбекистана, а также реформам, проведённым за последние годы, в области образования и профессиональной подготовки молодёжи. В статье анализируются возможности и условия, созданные для молодёжи, а также приведены предложения на основе обратной связи.

Ключевые слова: третий Ренессанс, молодёжь, новый Узбекистан, молодёжная политика, молодёжное творчество, молодёжная тетрадь.

Mamayusupov S.D. The importance of the state youth policy in the development of the New Uzbekistan

This article is devoted to the state youth policy in Uzbekistan, the reforms carried out in recent years in the field of education and vocational training of young people. The article analyzes the opportunities and conditions created for young people, as well as offers and feedback.

Key words: third Renaissance, youth, new Uzbekistan, youth policy, youth creativity, youth notebook.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

INSON HUQUQINI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI BO‘YICHA AYRIM MULOHAZALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigida [1] Asosiy qonunimizni yanada takomillashtirishning 9 ta yo‘nalishi belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish va davlat boshqaruvi sohasida olamshumul islohotlar amalga oshirilib, davlatimiz o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘li belgilab oldi. Dunyoning taraqqiy etgan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan Prezidentlik boshqaruviga o‘tilishi, ikki palatali parlamentning faoliyat yuritishi va u orqali qonunlarning sifatli qabul qilinishi, ijro hokimiyatining milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqib tashkil etilishi, ko‘ppartiyaviylik va siyosiy plyuralizmning joriy qilinishi, fuqarolik jamiyati institutlarining, ayniqsa mahalla institutiga qaratilgan e’tibor bu yo‘lning asosini tashkil etadi.

Ayniqsa, keyingi olti-yetti yilda amalga oshirilayotgan tub islohotlar – davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam xalqqa xizmat qilishi, xalq qabulxonalari orqali xalqning dardi va muammolarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilishi, mavjud muammolarning joyida hal etilishi, davlat xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to‘la joriy etilishi O‘zbekiston chinakam ijtimoiy huquqiy xalqparvar davlatga aylanganligini ko‘rsatmoqda. Shu sababdan, bugungi kunda to‘la asoslar bilan aytish mumkinki, kiritilayotgan o‘zgartishlarda, dastavval, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida *“O‘zbekiston ijtimoiy, xalqparvar demokratik huquqiy dunyoviy davlat, suveren respublikadir”,* tahriridagi qoida mustahkamlanishi ayni maqsadga muvofiqdir.

Inson huquqini ta’minlash va uni himoya qilish kishilik jamiyati taraqqiyotining asosiy va bosh masalalaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Inson huquqlari demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri bo‘lib, u davlatning qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos mezondir. Shu maqsadda, Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartishlarda inson huquqini ta’minlashga bag‘ishlangan quyidagi mazmundagi konstitutsiyaviy qoidalarni Asosiy qonunimizdan joy topishi lozim: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari Konstitutsiyaga muvofiq tan olinadi va kafolatlanadi; ikkinchidan, insonning huquq va erkinliklari tug‘ilishi bilan unga tegishli bo‘ladi, mutloq va ajralmas deb tan olinadi; uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar; to‘rtinchidan, inson va fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklariga, konstitutsiyaviy tuzum va jamiyatning ma’naviyatiga putur yetkazmasligi shart; beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasida barcha millatlar teng huquqlidirlar. Davlat kam sonli millatlarning qonuniy huquq va manfaatlarini kafolatlaydi, barcha millatlarning tenglik, birdamlik va o‘zaro yordam munosabatlarini himoya qiladi va rivojlantiradi. Har qanday millatga nisbatan ayirmachilik qilish man etiladi, millatlararo birdamlikka zavol

yetkazuvchi harakatlar taqiqlanadi va ularning do‘stlik munosabatlariga putur yetkazishga yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir millat o‘z tili va yozuvidan erkin foydalanish va rivojlantirish, o‘z odat va an’analarini erkin saqlash yoki o‘zgartirish huquqiga ega; oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Ma’lumki, Konstitutsiya o‘z fuqarolariga huquq va erkinliklarni taqdim etadi, Konstitutsiya fuqarolik orqali shaxs va davlat munosabatlarini yo‘lga qo‘yadi. Shu sababdan, Konstitutsiyamizda fuqarolik bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish alohida siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, Asosiy qonunimizda fuqarolikka oid quyidagi normalarning mustahkamlanishi diqqatga sazovordir: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik o‘zida insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan davlat va shaxs o‘rtasidagi siyosiy-huquqiy munosabatlarni ifoda etadi; ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik “qon huquqi”ga (jus sanguinus), ya’ni tug‘ilgan bolaning ota-onasi fuqaroligiga asoslanadi; uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik: a) fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar yoki o‘z fuqaroligini o‘zgartirmoqchi bo‘lganlarning so‘roviga ko‘ra; b) O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining boshqa davlat fuqarosi bilan nikoh tuzishi bilan; v) fuqaroligi bo‘lmagan bolani yoki chet davlat fuqarosini farzandlikka olganda vujudga keladi; to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilish, tiklash yoki rad etish to‘g‘risidagi iltimosnoma shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga beriladi; beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir; oltinchidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi; yettinchidan, har bir bola tug‘ilishi bilan ro‘yxatga olinishi va ism berilishi kerak. Har bir bola fuqarolikni qo‘lga kiritish huquqiga ega; sakkizinchidan, O‘zbekiston Respublikasida har bir inson fuqaro bo‘lish huquqiga ega. Hech kim fuqaro bo‘lish huquqidan va fuqaroligini o‘zgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas; to‘qqizinchidan, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat organlari va mansabdor shaxslari orqali O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari oldida mas’uldirlar, fuqarolar esa davlat oldida mas’uldir.

Shuningdek, insonning shaxsiy huquq va erkinliklariga bag‘ishlangan quyidagi tahrirdagi qoidalar Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartishlarda inobatga olinishi lozim deb hisoblaymiz: birinchidan, yashash huquqi har bir insonning tabiiy va uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. Hech kim tutqunlikda saqlanishi, majburiy mehnatga, hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diradigan ishlarga jalb qilinishi mumkin emas. Odam savdosining har qanday ko‘rinishi qonun bilan taqiqlanadi. Har kim o‘zining hayoti va sog‘lig‘ini hamda boshqalarning hayoti va sog‘lig‘ini g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish huquqiga ega; ikkinchidan; har qanday shaxs uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

2005 yil 1 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi Prezident farmonining qabul qilinishi ushbu huquqni ta’minlashga qaratilgan, dunyo hamjamiyati oldida mamlakatimiz shon–shuhrati, obro‘yini oshiradigan va yuksakka ko‘taradigan olamshumul tarixiy hujjat hisoblanadi. Mustaqillik yillarida Jinoyat kodeksi qabul qilingan dastlabki kunlardanoq o‘ta og‘ir jinoyatlarga nisbatan tayinlanadigan fav-

qulodda jazo chorasi hisoblangan o‘lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar sonini kamaytirishga harakat qilindi. Totalitar tuzum davrida qabul qilingan 1959 yilgi JKda 33 ta moddaning sanksiyasida o‘lim jazosi nazarda tutilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida yurtboshimizning “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi Farmonga binoan 2008 yil 1 yanvardan mamlakatimizda o‘lim jazosi bekor qilindi. Ushbu Farmonning tub mazmun-mohiyati inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, unda insonparvarlik tamoyillari o‘z aksini topgan va u xalqaro huquq me’yorlariga to‘la mosligi bilan ham ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgartishlarda *“O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi qo‘llanilmaydi. Uning o‘rniga qo‘llaniladigan bir umrlik ozodlikdan mahrum qilish jazosi voyaga yetmaganlarga, homilador ayollarga va oltmish yoshdan oshganlarga nisbatan qo‘llanilmaydi”* tahriridagi alohida qoidani kiritish o‘rinlidir.

Inson huquqini himoya qilishda sud hokimiyatining mustaqilligi muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [2]gi farmoni asosida Oliy xo‘jalik sudi, Oliy sud fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud hokimiyatining yagona oliy organiga – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi, ma’muriy va iqtisodiy sudlar tashkil qilindi, sudlarning moddiy-texnika ta’minotini Adliya vazirligi departamentidan Oliy sudga olib berildi, sudyalar katta yordamchisi va yordamchisi lavozimlari tashkil qilindi, sudyalikka tayinlash va saylanish muddatlari takomillashtirildi va bu o‘z navbatida chinakam sud hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qildi. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgartishlarda asosiy e’tibor *Konstitutsiyaviy sud, Oliy Sud, Sudyalar oliy kengashi kabi sud hokimiyati tarmoqlarining huquqiy holatini belgilashga* bag‘ishlangan normalarning munosib joy egallashiga qaratilishi lozim.

Sudlar faoliyatidagi katta tarixiy qadam sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi farmoni bo‘ldi. Farmonda dastlabki tergovda sud hokimiyatini o‘rnatish tomonga qo‘yilgan navbatdagi qadam bo‘lib, sud hokimiyatining obro‘-e’tiborini oshirishga, fuqarolarda sudga nisbatan ishonch his-tuyg‘usini shakllantirishga, shaxsning huquq va erkinliklari daxlsizligi hamda ularni sud qarorisiz ozodlikdan mahrum etishga yoki ularning huquqlarini cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga ham to‘la mos keladi. Sudlarga ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga nisbatan sanksiya berish vakolatining berilishi jinoyat ishlari bo‘yicha sudgacha bo‘lgan bosqichda ish yuritishda sud nazoratining boshlang‘ich debochasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgartishlarda *O‘zbekistonda Habeas korpus instituti amalda bo‘lishi, qamoqqa olish bo‘yicha sanksiya faqat sudlar tomonidan berilishini belgilashga* bag‘ishlangan normalarning munosib joy egallashi muhim ahamiyatga egadir.

Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini to‘la qaror toptirishni bolalarimizning ta’lim-tarbiyasiz, ularning bilimi, intellektual salohiyatisiz, ona Vatanga sadoqatli barkamol shaxs sifatida kamol toptirmasdan turib tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoxud, boshqacha aytganda, Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, birinchi navbatda bolalarimizning qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga, farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liqdir.

Demak, bizning pirovard maqsadimiz hisoblangan demokratik huquqiy davlat qurish hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish va maktab partalarida o‘tirgan

farzandlarimizning odobi, bilimi bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlikning ahamiyatini aholi ongiga to‘la singdirmasdan, xalqimiz ongida maktabni muqaddas bir Ka’ba sifatida shakllantirmasdan turib pirovard maqsadimizga erishish mumkin emas. Shu sababdan, mustaqillik yillarida yosh avlodni barkamol va bilimli qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning “Ilm bo‘lmagan joyda bilim bo‘lmaydi, ilm yo‘q joyda ta’lim bo‘lmaydi” degan hayotiy qoidalardan kelib chiqqan holda ilm-fanni, avvalo, uni ta’lim sohasiga faol jalb etish so‘nggi besh yillikdagi eng faol islohotlardan biriga aylandi. Ushbu munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilib, dunyo reytingida e’tirof sari faol harakatlar boshlandi. 2030 yilgacha oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi asosida eng nufuzli oliy ta’lim muassasalari reytinglariga kirish bo‘yicha vazifalar belgilangan bo‘lib, bugungi kunda buning yorqin misollari ko‘zga tashlanmoqda.

Yangi islohotlar bosqichida maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu e’tibor bolalarimizning umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga mukammal tayyorlash, ularning iqtidor va qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlash, ongini rivojlantirish, maqsadli yo‘nalishga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartishlarda *mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim davlat va xususiy ta’lim muassasalarida olib borilishini o‘rnatuvchi normalar* o‘rin egallashi muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, har bir jamiyatda iqtisodiy munosabatlar masalasi muhim ahamiyat kasb etib, davlatning asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyada bu masalaga alohida e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi belgilangan. Mamlakatimizda bugungi kunda moddiy, moliyaviy, mehnat hamda tabiiy resurslardan oqilona va samarali tarzda foydalanish ta’minlandi. Biz tarixan qisqa muddat ichida energetika va oziq-ovqat mustaqilligiga erishdik, mamlakatimiz avtomobil va neft mahsulotlari eksportchisiga aylandi.

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarimizning bosh jihati kichik va xususiy biznesni, tadbirkorlikni, qishloq xo‘jaligida fermerlikni keng rivojlantirish, mamlakat iqtisodiy hayotida ularning salmog‘ini keskin oshirishga qaratilgan. Kichik va xususiy biznes, tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish tomon tutilgan bunday yo‘l jamiyatimizdagi ko‘pgina iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini bermoqda.

Iqtisodiy islohotlar sohasida, birinchidan, ushbu islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi, mulkchilik va iqtisodiy erkinlik tafakkuri, erkin raqobat muhiti yuzaga keltirildi; ikkinchidan, ma’muriy buyruqbozlik ish uslublaridan asosan xalos bo‘lindi va bozor iqtisodi tamoyili hamda mexanizmlari ishlay boshladi; uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy va xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuvi amalga oshirildi; to‘rtinchidan, bozor infratuzilmasi barpo etildi va uning barqaror faoliyati ta’minlandi. Shu sababdan, Asosiy qonunimizga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalarda *mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik, xususiy biznes hamda xususiy mulkchilik munosabatlarini tartibga soluvchi normalarga* alohida urg‘u berilishi kerak.

Bosh qomusimizning asl mohiyati, maqsad va vazifasi jamiyat va fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini saqlash, huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, bir so‘z bilan aytganda, jamiyat xavfsiziligini kafolatlashdan iborat. Milliy xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi. Bunda asosan davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va boshqa

davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati alohida e’tiborga olinadi.

Shu bilan birga, milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligi – bu jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, bunda asosan jamiyatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar (harakatsizliklar), favqulodda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yirik halokatlar, avariyalar va yong‘inlardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Jamoat xavfsizligi obyektlariga shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan normalar mustahkamlangan bo‘lsa-da, biroq jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi vazifa va funksiyalar aniqlashtirilmagan, davlat organlari, jamoat birlashmalarining vazifa va funksiyalari, eng asosiysi jamoat xavfsizligi sohasida Parlament nazoratiga oid normalar o‘z ifodasini topmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, hozirgi zamonda jamoat xavfsizligiga nisbatan yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlardan samarali himoyalanish mexanizmini yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [3]ning 78-moddasida belgilangan *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga aynan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi vakolatlar, vazifa va funksiyalari* bilan bog‘liq qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Yuqorida aytilgan fikrlarni muxtasar qilib, mustaqillik yillarida mamlakatimizda Bosh qomusimizga asosan Prezidentimiz rahnamoligida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, davlat qurilishi, huquqiy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar yurtimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar davlat barpo etish uchun asos bo‘ladi. Shubhasiz, konstitutsiyaviy islohotlar yillar o‘tgan sari yanada samarali bo‘lib, ular yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalqimiz farovonligiga, fuqarolarimizning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 29 йиллиги муносабати билан Ўзбекистон халқига байрам табриги.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 21 февралда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси суд тизими тузилмасини тубдан такомиллаштириш ва фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2019.

Rustambayev M.X. Inson huquqini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari bo‘yicha ayrim mulohazalar

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga inson huquqi, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni tartibga solishi lozim bo‘lgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar xususida takliflar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: inson huquqi, demokratik huquqiy dunyoviy davlat, suveren respublika, fuqarolik, yashash huquqi, o‘lim jazosi, sanksiya, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, xususiy ta’lim, xususiy mulk.

Рустамбаев М.Х. Некоторые комментарии о конституционных основах прав человека

В статье обоснованы предложения и дополнения, вносимые в Конституцию Республики Узбекистан, а также рассмотрены вопросы регулирования обеспечения прав, свобод и законных интересов граждан.

Ключевые слова: права человека, демократическое правовое светское государство, суверенная республика, гражданство, право на жизнь, смертное наказание, санкция, дошкольное образование, общее среднее образование, частное образование, частная собственность.

Rustambaev M.X. Some comments on the constitutional foundations of human rights

The article describes the proposals for additions and changes to the Constitution of the Republic of Uzbekistan that should regulate the provision of human rights, freedoms and legal interests.

Key words: human rights, democratic legal secular state, sovereign republic, citizenship, right to life, capital punishment, sanction, preschool education, general secondary education, private education, private property.

Pulatov Yuriy Sayfiyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jinoiy-huquqiy fanlar” kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor;
Usmonov Muhammadi Baxriddinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari” kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

EKOLOGIK MUNOSABATLARNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishga e’tibor qaratib, “Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”, deya ta’kidladi. “Biz globallashuv har tomonlama avj olayotgan, shiddatli o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan murakkab zamonda yashamoqdamiz, - dedi fikrini davom ettirib Prezidentimiz, - bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi” [1].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigida ta’kidlanganidek, “hozirgi vaqtda ko‘plab rivojlangan davlatlar tabiatdagi global o‘zgarishlarni hisobga olib, o‘z Konstitutsiyasiga ekologiyaga oid maxsus boblar kiritmoqda. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham ushbu dolzarb masalaga doir huquqiy normalar ustuvor o‘rin egallashi lozim” [2]. Yurtboshimiz tomonidan ushbu tabrikda Asosiy qonunimizni yanada takomillashtirishning 9 ta yo‘nalishi belgilab berilib, shulardan biri ekologik muammolar ekanligiga alohida urg‘u qaratildi.

Ushbu e’tiborning asosiy sababini atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish XXI asrga kelib butun dunyo hamjamiyati oldida turgan eng asosiy global muammoga aylanganligi, ushbu muammo milliy va mintaqaviy chegaradan chetga chiqib, butun insoniyatni tashvishga solayotganligi bilan izohlash mumkin. Dunyo miqyosida atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, bioxilmaxillikning qisqarishi, suv taqchilligi, tuproq unumdorligining pasayishi, ozon qatlamining yemirilishi, iqlim o‘zgarishi kabi salbiy holatlar ekologik xavfsizlikni ta’minlash dolzarb muammolardan biriga aylanganligidan dalolat beradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog‘liq turli xil kasalliklar, hayvonot va o‘simlik dunyosining kirilib ketayotganligi, ularning noyob turlarining yo‘qolib borayotganligi, odamlarning ommaviy kasallanishi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining kamayishi, inson organizmida modda almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq yangidan-yangi kasalliklarning kelib chiqishi, yurak-qon, rak kabi kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda ekotizmdagi muvozanatning buzilishi shu darajada og‘ir ko‘rinish olganki, buning natijasida insonlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini amalda ta’minlash jiddiy muammoga aylanib qoldi.

Bu kabi ekologik xavf-xatarlar O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, ular sanoat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi unumdorligining pasayishi, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda

qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun bugungi kunda ekologik muammolarni ijobiy hal etish kishilik jamiyatini saqlab qolish, milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ma’lumki, inson tabiatni o‘ziga bo‘ysundira olmaydi va shu sababdan u o‘z faoliyatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq qonuniyatlarni e’tiborga olishi hamda hozirgi va kelajak avlod manfaati yo‘lida tabiatga va uning biologik resurslariga zarar yetkazmasligi talab etiladi. Ushbu talabni ta’minlashni bugungi kunda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zaro mutanosib uyg‘un rivojlanishini kafolatlovchi konstitutsiyaviy normalarsiz tasavvur etish qiyin. Ekologik munosabatlarni tartibga solishni belgilovchi konstitutsiyaviy qoidalar tabiat va jamiyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, atrof tabiiy muhitni muhofaza etish global, eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, u davlatning asosiy qonuni, ya’ni Konstitutsiya asosida tartibga solishni talab etadi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, Konstitutsiya asosida tartibga solinadigan eng muhim ijtimoiy munosabatlar sirasiga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ya’ni ekologik munosabatlar ham taalluqlidir.

Xo‘sh, yangi Konstitutsiyada ekologik munosabatlarni o‘rnatuvchi qanday mazmundagi asosiy qoidalar o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozim? Avvalo, ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy qoidalar tabiat obyektlariga nisbatan mulkchilik munosabatlarini aniq va mukammal, bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy tub islohotlar va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib belgilanishi zarur. Ma’lumki, hozirda harakatdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida tabiat obyektlariga nisbatan faqat davlat mulkchiligi o‘rnatilgan.

Aholi farovonligini ta’minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, insonning iqtisodiy huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng muhim sharti yer, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan xususiy mulkchilikning daxlsizligi va himoyasini ta’minlash hisoblanadi. Tabiat obyektlariga nisbatan xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim omillardan sanaladi. Shu sababdan, yangi ishlab chiqilayotgan Asosiy qonunimizda yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi umummilliy boylik hisoblanib, ularga nisbatan davlat mulkchiligi o‘rnatilishi lozim.

Shu bilan birga ba’zi tabiat obyektlari, masalan, tomorqa yerlari, aholiga xizmat ko‘rsatadigan binolar (kafe, restoran, sartaroshxona, kichik ishlab chiqarish binolari, magazinlar joylashgan yer uchastkalari) joylashgan yer uchastkalari, chet el elchixonalari joylashgan yer uchastkalari, yer ustiga yaqin joylashgan qazilma boyliklar, ba’zi turdagi suvlar (quduq suvlari), o‘simlik (uy sharoitida o‘stiriladigan barcha o‘simlik dunyosi) va hayvonot dunyosi (uyda boqiladigan yovvoyi hayvon turlari) obyektlari xususiy mulk obyektlari bo‘lishi mumkinligi konstitutsiyadan muqim joy egallashi kerak.

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, bugungi kun yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda ekologiyaga doir bir qator keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tub o‘zgarishlar asosli ravishda atrof tabiiy muhit holatining yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik, davlatning ekologik nazorat funksiyasini kuchaytirish, iqtisodiyotning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini bartaraf etish kabi muammolarni hal etishga qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [3] gi farmonida tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz

qilish, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan monitoringni amalga oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etish, Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish kabi chora-tadbirlarning belgilanishi mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Demak, yangi Konstitutsiyadagi ekologik munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan bobda alohida norma sifatida yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan muhofaza etilishini davlat kafolatlaydi, mazmunidagi qoida o‘rin egallashi lozim.

Shuningdek, “davlat insonning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilishni ta’minlaydi” tahriridagi mustaqil qoida ham ushbu hujjatda o‘z ifodasini topishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga intilinadi, deb belgilangan. Asosiy Qonunning 37-moddasida esa, fuqarolar adolatli mehnat sharoitlarida mehnat qilish huquqiga egaligi o‘rnatilgan bo‘lib, ushbu huquqni amalda ta’minlash fuqarolarga qulay atrof tabiiy muhit yaratib berish zarurligini ham nazarda tutadi. Fuqarolar normal va sog‘lom hayot kechirishlari, sog‘lom turmush tarzini amalga oshirishlari, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun ularni o‘rab turgan atrof tabiiy muhit - atmosfera havosi, suv, o‘simlik dunyosi, tuproq toza, inson sog‘lig‘iga zararli ta’sir etmaydigan sifat va holatda bo‘lishi lozim.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun ijodkorligi amaliyotida bosh g‘oya, eng avvalo, insonning hayoti va sog‘lig‘i uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Demak, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi, atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari, davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari bilan bog‘liq vazifalar Konstitutsiya asosida tartibga solinishi lozim bo‘lgan eng muhim ijtimoiy munosabatlar sirasiga kiradi.

Ammo, bugungi kunda fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqiga bag‘ishlangan alohida maxsus qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan emas. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini belgilashga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limini fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini tartibga soluvchi alohida norma bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqqan holda “davlat fuqarolarning hayot uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlashni kafolatlaydi”, mazmunidagi qoidaning yangi Asosiy qonundan joy egallashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yangidan ishlab chiqiladigan davlatimizning Asosiy qonuniga ekologik munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan alohida bobning kiritilishi, unda joy olgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlashga bag‘ishlangan normalar bizni o‘rab turgan ona tabiatni asrashga, aholi salomatligini muhofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga, uni kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazishga, pirovardida mamlakatimizda barqaror rivojlanish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 29 йиллиги муносабати билан Ўзбекистон халқига байрам табриги;

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони.

Pulatov Y.S., Usmonov M.B. Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ekologik munosabatlarni tartibga solishi lozim bo‘lgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar xususida takliflar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, ekologiya huquqi, ekologiya qonunchiligi, ekologik xavfsizlik, tabiat, yer, suv, o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, atmosfera havosi.

Пулатов Ю.С., Усмонов М.Б. Конституционные основы экологических отношений

В статье обоснованы предложения и дополнения к существующей Конституции Республики Узбекистан по регулированию правоотношений в сфере экологии.

Ключевые слово: экология, экологическое право, экологическое законодательство, экологическая безопасность, природа, земля, вода, растительный мир, животной мир, атмосфера.

Pulatov Y.S., Usmonov M.B. Constitutional foundations of ecological relations

The article describes the proposals for additions and changes to the Constitution of the Republic of Uzbekistan that should regulate environmental relations.

Key words: ecology, environmental law, environmental legislation, environmental safety, nature, land, water, flora, fauna, atmospheric air.

Axrorov Baxrom Djabbarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori;
Narimov Ikrom Shermatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Prokurorining birinchi o‘rinbosari

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI DAVRIDA IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Joriy yilda O‘zbekiston o‘z mustaqilligining o‘ttiz bir yilligini nishonlaydi. O‘tgan mustaqillik davrida ko‘plab islohotlar amalga oshirildi, ijtimoiy masalalarga katta e’tibor qaratildi, fuqarolarimizning iqtisodiy munosabatlariga yangicha erkinliklar yaratildi, ishlab chiqarish va tadbirkorliklarga keng yo‘l berilganini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatida, - “Bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O‘zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo‘lishini ta’minlash eng asosiy vazifamiz bo‘lishi shart” [1],- deb ta’kidlab o‘tgan edi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishining asosiy shartlaridan biri shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish va jamiyatda inson huquqlarini ta'minlashning ishonchli, to‘laqonli kafolatlarini yaratishdir.

Bugungi kunda qonun hujjatlarining butun bir tizimi ishlab chiqilgan, hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklari bo‘yicha 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Harakatlar strategiyasi asosida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 150 dan ortiq qonun va 2 mingdan ortiq farmon va qarorlar qabul qilinib, ijroga qaratildi va yana qator hujjatlar loyihalari ustida ishlanmoqda. Mazkur hujjatlardan maqsad mamlakatni yanada modernizatsiyalash, qonun va inson huquqlari ustuvorligini ta’minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir.

Toshkentda 2018 yil 21 noyabr kuni «Inson huquqlari sohasida taraqqiyot mezonlarini o‘lchash bo‘yicha qiyosiy ko‘rsatkichlar: xalqaro amaliyot va O‘zbekiston tajribasi» mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi, uning Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy bo‘limi hamda boshqa daxldor tashkilotlarning palatasi deputatlari, ijro va sud hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta’lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, diplomatik korpus, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Konferensiyada O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berildi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish va inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyati samaradorligini baholash, gender tengligi darajasi va inson huquqlariga rioya qilishni o‘lchash indikatorlari, inson huquqlarini sudda himoya qilish darajasini baholash uchun qiyosiy ko‘rsatkichlar kabi yo‘nalishlarda milliy va xalqaro tajriba muhokama etildi.

Bo‘lib o‘tgan ushbu xalqaro konferensiyada BMTning Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mitasi raisi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Litva, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Ombudsmanlari, shuningdek, Ozarbayjon va Polsha Ombudsman institutlari vakillari ham ishtirok etdi. Ushbu konferensiyada qatnashgan Rossiya Federatsiyasining Inson huquqlari bo‘yicha vakili Tatyana

Moskalkova: «Men o‘tgan yili ham O‘zbekistonga kelgan edim va bir yil ichida jamiyatingizda ulkan o‘zgarishlar ro‘y berganiga guvoh bo‘ldim. Bugun Prezidentning Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari har bir fuqaroga davlat organlari bilan muloqot qilish va buzilgan huquqlarini tiklash, noto‘g‘ri qarorlar tekshirilishini talab qilish imkonini bermoqda. Mamlakatingizda din va e’tiqod erkinligini ta’minlash, ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida ham ijobiy ishlar qilinmoqda», – deya e’tirof etishi bu borada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar ijobiy samara berayotganini anglatadi.

Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz – O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo‘shmoqda. Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat’i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an’ana, urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish 7 tilda olib borilyapti. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ko‘rsatuvlarni 12 tilda namoyish etmoqda. Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 138 ta milliy madaniy-markaz yetakchi rol o‘ynayapti. Ular o‘ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, bir-birini o‘zaro boyitishiga, ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, 34 ta do‘stlik jamiyati muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonga 2017 yilda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn, BMTning din va e’tiqod erkinligi masalasi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi Ahmad Shahid tashrif buyurdi. Ushbu tashrif yakunlari bo‘yicha mamlakatimiz parlamenti tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar rejasi qabul qilindi. Mazkur hujjat inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida 90 dan ortiq tadbirni o‘z ichiga olgan. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, kabi inson huquqlari va erkinligini himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolar huquqlarini qonunchilikka binoan himoya qilish jarayonida faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili faoliyati takomillashtirildi. Uning jazoni ijro etish muassasalarida nazoratni amalga oshirishga oid vakolatlari kengaytirildi. Inson huquq va erkinligini sud orqali himoya qilishda diqqatga loyiq ishlar amalga oshirildi, jumladan, so‘nggi besh yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatgacha qisqartirildi, JK jazolar tizimidan uzoq vaqt davomida o‘zini oqlamagan qamoq jazosi chiqarilib, majburiy jamoat ishlari va ozodlikni cheklash jazolari kiritildi, advokatlarning sud faoliyatidagi roli kuchaytirildi. Mazkur choralar BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi tomonidan O‘zbekistonning inson huquqlari bo‘yicha yillik hisobotlarini ko‘rib chiqishda bildirilgan tavsiyalarga to‘la javob beradi.

BMT Taraqqiyot dasturining Istanbul shahridagi mintaqaviy markazi maslahatchisi

Izabel Chan: "Mamlakatingiz bilan hamkorligimiz mazkur maqsadlarni amalga oshirish yo'lidagi iqtisodiy, ijtimoiy, atrof-muhitni himoya qilishni rivojlantirishga doir masalalarni hal qilishga qaratilgan. O'zbekistonlik hamkorlarimiz bilan ishlash jarayonida biz inson huquqlari sohasida o'zgarishlar yasaydigan indikatorlar kiritishni mo'ljallamoqdamiz", deya alohida ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "... Qonun adolatli bo'lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi. ... Fuqarolarning fikr, so'z va e'tiqod erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash – rivojlangan demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir",[2] deya ta'kidlagan.

Davlat siyosatining to'liq ta'minlanishi uchun halol iqtisodiy muhit yaratilishi lozim, iqtisodiy erkinlik Konstitutsiya va qonunlarning kafolatlanishi evaziga yaratiladi, iqtisodiy jozibadorlik shakllanadi, mamlakatimizga bo'lgan ishonch ortib boradi. Xorijiy hamkorlarda ishonch ruhi shakllanadi va hamkorlik munosabatlari ortib boradi. Natijada davlat, jamiyat va fuqarolarimizning iqtisodiy barkamolligiga erishish imkoniyatlari yaratiladi, ilm-fan rivojlanadi. Kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy yetuk davlatlar qatoriga kirish imkoniyatlari yaratiladi. G'ayriqonuniy, nohalol yashirin iqtisodiyot butun jamiyatning iqtisodiy tanazzuliga olib keladi, kambag'allik yanada ortadi, siyosiy muhit parchalanadi, olib borilayotgan har qanday islohotlar besamar ketaveradi. Dunyo bo'yicha davlat qoloq davlatlar qatoriga borgan sari kirib boraveradi.

Davlatning iqtisodiy barkamolligi jamiyat hayotining asosiy sohasidan biridir, insoniyatning borlig'i, rivojlanishi, jamiyatning iqtisodiy manbaini tashkil qiladi. Iqtisodsiz jamiyat bo'lmaydi. Davlat jamiyatning iqtisodiy taraqqiy etishiga zamin yaratadi, nazorat qiladi va huquqiy himoya qilishni ta'minlaydi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ne'mat va vositalarni ishlab chiqaradilar hamda o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar. Iqtisodiy salohiyat davlatlar o'rtasidagi muomala munosabatlarining ham asosini tashkil etadi, iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi vositasini tashkil etadi.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi, ularning rivojlanishiga moddiy manba bo'la oladi. Moddiy manba faqatgina iste'mol vositasi bo'lib qolmay, davlat va jamiyat rivojlanishining barcha sohalarining moliyalashtirilishiga xizmat qiladi. Jumladan, davlatning siyosiy, ijtimoiy, mudofaa, madaniy, ma'naviy va boshqa sohalarining mavjudligi va rivojlanishining moliyalashtirilishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

"Iqtisod" iborasining o'zi nimani anglatadi, qanday ma'noga ega. Ushbu iboraning lug'aviy ma'nosi tejamkorlik, rejali bo'lish, moddiy ne'matli bo'lish kabi ma'nolarni anglatadi. Buyuk mutafakkir Abdullo Avloniyning iqtisodga bergan ta'rifiga ko'ra, *"Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas"* [3], degan edi.

Iqtisodiyot nazariyasida "Iqtisodiyot" tushunchasiga shunday ta'rif beradilar: *Birinchidan*, iqtisodiyot – bu xo'jalik yuritish, inson tomonidan yaratilgan turli ne'matlardan foydalanib hayot kechirish, insonlar hayotini ta'minlash va yaxshilash tizimi; *ikkinchidan*, iqtisodiyot – bu resurslar va jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning firma va uy xo'jaliklari orasidagi uzluksiz doiraviy harakati; *uchinchidan,* iqtisodiyot – bu fan, turli-tuman cheklangan resurslardan foydalanib, jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, xo'jalik yuritish jarayonida odamlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar haqidagi bilimlar majmuidir[4].

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Budjet Kodeksi" bilan tartibga solinadi. Ushbu kodeksning 1-moddasida "Kodeks O'zbekiston

Respublikasining budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi”, deb belgilangan. Ushbu qonun davlat budjetining tartibga solinishining asosiy qonuni bo‘lib, ushbu qonun boshqa qonun va normalar bilan ham tartibga solinishini belgilab bergan, lekin shuni ta’kidlash lozimki, boshqa qonun yoki qonun osti normativ huquqiy hujjatlar ushbu qonunga zid bo‘lishi mumkin emas. Budjet Kodeksining 2-moddasida, (Budjet to‘g‘risidagi qonunchilik) Budjet to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Budjet to‘g‘risidagi qonunchilikning boshqa qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan normalari ushbu Kodeksga muvofiq bo‘lishi kerak, deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu qonunning tartibga solish sohasi soliq tizimi, bojxona qonunchilik normalari mahalliy va sohaviy yig‘imlar kabi normalarning qoidalariga ham bog‘liqdir. Ushbu vazifalarning tartibga solish va yuritish vakolatlari Budjet Kodeksining 4-bobida qonunlashtirib berilgan. Unda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining budjet sohasidagi vakolatlari, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining budjet sohasidagi vakolatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining budjet sohasidagi vakolatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining budjet sohasidagi vakolatlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining budjet sohasidagi vakolatlari, Hududiy moliya organlarining budjet sohasidagi vakolatlari, budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet sohasidagi vakolatlari, budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning budjet sohasidagi vakolatlari, Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarning budjet sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan.

Davlatning budjet siyosati qonunga muvofiq bo‘lishi va siyosatdan holi bo‘lishini talab etadi, budjet munosabatlariga siyosat ustuvorlik qilishi mumkin emas, iqtisodiy munosabatlariga siyosatning aralashuvi jamiyatning iqtisodiy negizining buzilishiga, inqiroziga olib kelishi mumkin. Sobiq Sovet ittifoqining asosiy inqiroziga ham iqtisodiy munosabatlarning siyosatga bo‘ysundirilganligi oqibatlari sabab bo‘lgan, doimiy ravishda iqtisodiy tanglik hukmronlik qilgan, oziq-ovqat yetishmovchiligiga olib kelgan, ocharchilik yillari vujudga kelgan.

Sobiq totalitar, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida siyosat iqtisodiyotdan ustun bo‘lib, uning rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berar edi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz-kooperativ mulkchilik shakllaridan iborat umumxalq mulki tashkil etgan edi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortig‘iga ega bo‘lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o‘rnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni “markaz”dan ma’muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib borgan edi.

Jamiyat a’zolari ijtimoiy mulkka egalik qilish huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shug‘ullanish, xususiy savdo munosabatlari qonun bilan man etilib, jinoiy javobgarlik belgilangan edi. Bunday faoliyat bilan shug‘ullanganlar chayqovchi, xususiy kosibkor, savdo qoidalarini buzuvchi yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilganlar. Xususiy mulk huquqi qo‘pol ravishda buzilib, xususiy mulk egalari “quloqlar” deb atalib, og‘ir jazolar bilan jazolanganlar. Fuqarolarning xususiy mulkdan, uning iqtisodiy manfaatlaridan bahramand bo‘lishdan mahrum etilganlari tufayli, mehnat qilish va mehnat natijalaridan manfaatdor bo‘lishga istaklar so‘ndirilgan. Davlat siyosatining iqtisoddan ustun qo‘yilganligi sababli, doimiy oziq-ovqat tanqisligi, yetishmovchiligi davlat miqyosidagi muammo bo‘lib kelgan. Oziq-ovqat ta'minoti haqidagi davlat miqyosidagi qaror yoki qonunlar qabul qilinishiga qaramay oxir-oqibat davlat inqiroziga olib kelgan.

Ma’lumki, shaxsning mulkdor bo‘lish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, o‘zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug‘ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo‘lish kabi huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta’minlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Konstitutsiyasida “bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi” [5], deb belgilab qo‘yilgan.

Erkin ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo‘lib, demokratiyaning umumbashariy tamoyili hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va xo‘jalik yuritish usullarining xilma-xil bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Shu boisdan ham ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p tarmoqli poliqtisodiyot (aralash iqtisodiyot) bo‘lib, unda turli mulk shakllari va xo‘jalik sohalarining teng huquqliligi, muvozanatda bo‘lishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi ta’minlanadi.

Aralash iqtisodiyot, bu hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo‘lib, erkin bozor iqtisodiyotining namunasidir. Aralash iqtisodiyot AQSh, Angliya va Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarga xos. Aralash iqtisodiyot poliiqtisodiy tizim bulib, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti, kooperativ iqtisodiyot kabi modellardan o‘zining 3 jihati bilan ajralib turadi: a) mulkiy xilma-xillik. Mulkiy xilma-xillikda iqtisodiyotda yagona mulk monopoliyasiga o‘rin qolmaydi, xilma-xil mulkchilik yonma-yon rivojlanadi. Mulkchilikning uchta shakli mavjud bo‘lib, bular xususiy mulk, jamoa mulki va davlat mulkidan iborat bo‘ladi. Xususiy mulkning individual (yakka) mulk shakli emas, balki kooperativ (shirkat) shakli ustuvorlik qiladi. Jamoa mulki esa ishchi va xizmatchilarning o‘ziga yoki ularning kasaba uyushmasiga qarashli mulkdan tashkil topadi va xalq korxonalarida o‘z ifodasini topadi. Bu korxonalardagi ishchi va xizmatchilar ham mulk sohibi, ham mehnat ahli hisoblanadilar. Davlat mulki eng muhim, umummilliy ahamiyatga molik sohalar bilan cheklanadi, uning doirasi xususiylashtirish asosida qisqarib boradi. Mulk shakllaridan hech qaysisi monopol mavqeda bo‘lmaydi. Iqtisodiyotda mulk shakllarining muvozanati saqlanadi; b) xo‘jalik yuritish xilma-xilligi. Xo‘jalik yakka, shirkat, aralash tarzda yuritiladi. Xo‘jalik subyektlari xo‘jalik faoliyatini o‘z mablag‘iga, qarz puliga tayanib yuritadilar, ular o‘rtasida ijara munosabatlari keng tarqaladi. Yer, umuman, ko‘chmas mulk va hatto, mashina-uskunalar ham ijara asosida ishlatiladi, lizingning turli shakl va usullari keng qo‘llaniladi. Xo‘jalik yuritish milliy doiradan chiqib baynalminallashadi. Qo‘shma korxonalar, transmilliy korporatsiyalar rivojlanadi, ochiq iqtisodiy zonalar tashkil topadi; v) xo‘jalik faoliyati miqyosida muvozanatning ta’minlanishi. Yirik, o‘rta va kichik biznes muvozanatli holatda rivojlanadi. Yirik korxonalar monopoliyasiga o‘rin qolmaydi. Har bir biznes o‘z sohasida rivoj topadi. Yirik va kichik biznes munosabati, bir tomondan, raqobat munosabati bo‘lsa, ikkinchi tomondan sheriklik va hamkorlik munosabatiga aylanadi. Muvozanatli holat raqobatiga keng yo‘l ochadi, monopoliyani cheklaydi. Shu sababli ayrim korxonalar yopiladi, o‘zaro qo‘shiladi yoki yangidan ochiladi. Iqtisodiyot subyektlarining ko‘pchilik bo‘lishi raqobatning ahamiyatini oshiradi, sifatli mahsulotlarga erishiladi.

Aralash iqtisodiyot ko‘p sohalilikni talab etadi va bozor talabi atroflicha o‘rganilib, bozorbop, ya’ni yaxshi sotiladigan tovarlar ishlab chiqariladi; barcha ishlab

chiqarish omillari unumdorlikni ta’minlash yo‘lida mukammallashtirib boriladi. Samarali ishlab chiqarish hamma daromadlarni (ish haqi, foyda, renta, foiz) oshirish imkonini beradi. Chunki har bir omilning (er, mehnat va kapital) bergan iqtisodiy samarasi oshib boradi. Ammo daromadlar tarkibida mehnatdan keladigan daromad — ish haqi hissasining ortib borishiga olib keladi.

Aralash iqtisodiyotning ommaviy farovonlikni ta’minlashdan iborat umumlashtiruvchi qonuniga asoslanadi va u iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘nalishini ifoda etadi. Bu qonunni ikki holat yuzaga keltiradi. Birinchidan, mulk xilma-xil bo‘lib, ozchilik qo‘lida to‘planmay, ko‘pchilikka tegishli bo‘ladi va mehnat ahli ayni vaqtda mulk sohiblariga ham aylanadi. Ikkinchidan, mahsulot va xizmatlarning ko‘plab yaratilishi farovonlikni ta’minlashga yetarli bo‘ladi. Daromadlar yuqori bo‘lganidan ular tirikchilik sarfidan ortib qolib, pul va modliy shakldagi jamg‘armaga aylanadi. Shu bois milliy boylik tarkibida aholi mol-mulkining hissasi ortib boradi.

Hozirgi aralash iqtisodiyotda iqtisodiy munosabatlarning aralash tarzda bo‘lishi bozor va nobozor munosabatlarning uzviy qo‘shilib ketishiga olib keladi. Bozor munosabatlariga xos raqobat, foyda uchun kurash, xususiy mulk hukmronligi, daromadlarning ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijasiga bog‘liq bo‘lish kabi belgilar bilan bir qatorda uzoq sheriklik asosida hamkor bo‘lish, biznesda o‘z o‘rnini topib obro‘ orttirish, imijga ega bo‘lish, ishchi-xizmatchilarning mulkdorlarga aylanishi, xayr-sahovat qoidasiga binoan nochorlarga doimo yordam berish kabi munosabatlar ham kamol topadi. Aralash iqtisodiyotda tartibsizlik va noaniqlik minimal darajaga tushadi, iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solinadi, iqtisodiy muvozanatlar tiklanib turadi. Davlat daromadlarni qayta taqsimlab, minimal daromadlarni keskin pasayishiga yo‘l bermaydi. Shu maqsadda qonun yo‘li bilan ish haqi minimum miqdori belgilanadi. Davlat antimonopol siyosat yurgizadi. Firmalarda marketing xizmatining kuchli rivojlanishi bozorni chuqur o‘rganib, uning talabiga moslashish imkonini bergani holda davlat ham iqtisodiyotni tartibga solib turganidan kuchli iqtisodiy bo‘hronlar va larzalar yuz bermaydi, iqtisodiy tanglik chuqur bo‘lmaydi, undan tezda va kam talofat bilan chiqiladi. Umuman olganda jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik qaror topadi. Aralash iqtisodiyot bozor munosabatlarining eng rivojlangan shakli sifatida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи 2020 йил 30 декабрь сонида.

2. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасидан. Халқ сўзи 2017 йил 8 декабрь.

3. Абдулло Авлоний Танланган Асарлар. 2 жилдлик “Пандлар, ибратлар, ҳикоялар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари”, Тошкент “Манавият” 2006 www.ziyouz.com kutubxonasi, 62 б.

4. Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. Тошкент “Иқтисод молия” 2005 й. 5 б.

5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Тошкент: “Ўзбекистон” – 2020 й. 53-м.

Axrorov B.D., Narimov I.Sh. O‘zbekiston mustaqilligi davrida iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishning ayrim xususiyatlari

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida iqtisodiy munosabatlarning qayta shakllanishi va rivojlanishi masalalari, davlat va jamiyatning rivojlanishida iqtisodiyotning ahamiyati tahlil qilingan. Iqtisodiyotning rivojlanishi va

dunyodagi yetakchi davlatlarning tajribalaridan foydalangan holda iqtisodiyotni takomillashtirish bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: iqtisod, iqtisodiy erkinlik, xo‘jalik yuritish, budjet tizimi, soliq, tadbirkorlik, aralash iqtisodiyot, mulkiy xilma-xillik, biznes.

Ахраров Б.Д., Наримов И.Ш. Некоторые особенности формирования и развития экономики Республики Узбекистан

В статье анализируются процессы формирования и развития экономических отношений в годы независимости Республики Узбекистан, вскрыта роль экономики в развитии государства и формировании общества, на основе анализа опыта экономических отношений развитых стран мира даны предложения.

Ключевые слова: экономика, свобода экономики, ведение хозяйства, система бюджета, налог, предпринимательство, смешенная экономика, разнообразие имущества, бизнес.

Akhrarov B.D., Narimov I.Sh. Some features of the formation and development of the economy during the independence of Uzbekistan

The article analyzes the processes of formation and development of economic relations in the years of independence of the Republic of Uzbekistan, the importance of the economy in the development of the state and the formation of society. Some experiences of economic relations of developed countries of the world are analyzed and proposed.

Key words: economy, freedom of economy, farming, budget system, tax, entrepreneurship, mixed economy, diversity of property, business.

Usmanova Muborak Akmaldjanovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor;
Axmedova Muqaddas Tursunovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, dotsent

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON MANFAATI BOSH OMIL

O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi erishgan barcha ijobiy yutuqlarni, gumanitar qadriyatlarni, xalqaro huquqiy mezonlar va talablarni e’tirof etgani holda mehnat munosabatlari sohasida xalqaro andozalarga mos keladigan faoliyat yuritishga intilib kelmoqda. Bu faoliyat, eng avvalo, inson manfaatlariga yangicha yondashishda uning huquqiy negizini yaratish, insoniyat taraqqiyotida erishilgan ijobiy qoidalarni o‘z milliy tizimimizga joriy etilishida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Mamlakatimizda bozor talablari va tamoyillarining ijtimoiy hayotimizga tobora chuqurroq singib borayotgani, iqtisodiyotda xususiylashtirish rolining ortishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini ta’minlash, shartnomaviylikning kengayishi mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishda yangi modellarni ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Ta’kidlash lozimki, ushbu choralar dam olish vaqtini huquqiy tartibga solishga ham to‘la taalluqlidir. Shunga ko‘ra, taraqqiyotimiz sur’atlarini kerakli darajada bo‘lishini ta’minlash uchun o‘zgartirish va yangilash jarayonlarini uzluksiz davom ettirish, oldimizda paydo bo‘layotgan muammo va vazifalarni o‘z vaqtida hal etishimiz, Yangi O‘zbekistonga hamda uning taraqqiyotiga javob beradigan yangi qoidalarni islohotlarimiz mantig‘iga moslashtirish kerakligi muhim vazifaga aylanganligidan dalolat bermoqda.

O‘zbekistonda aholi bandligi darajasini oshirish, fuqarolarni ish bilan ta’minlash uchun zarur shart-sharoit yaratib berish maqsadida “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi (2021), “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (2016), “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi (2019), “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi (2019), “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi(2020) qonunlar qabul qilindi.

Dam olish huquqi insonning tabiiy va ajralmas huquqi sifatida ko‘plab xalqaro standartlarda o‘z aksini topgan. Xususan, ushbu huquq Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi (24-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt (8-modda), Yevropa ijtimoiy xartiyasi, shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkilotining bir qator konvensiyalarida (29,47,52,103,132 va boshqa) mustahkamlanganligi, shuningdek, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi mehnat sharoiti noqulay va o‘ziga xos bo‘lgan ishlar uchun beriladigan qo‘shimcha ta’tillarning bir qancha turlarini nazarda tutadi. Bu qo‘shimcha ta’tillarning eng kam muddati ayrim xodimlar uchun bevosita O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi, xodimlarning aksariyati uchun esa u O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot asosida jamoa kelishuvida yoki jamoa shartnomasida belgilanadi. Qolgan barcha qo‘shimcha ta’tillar, ularning aniq muddati, ularni berish tartibi va shartlari jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi

bilan kelishib ish beruvchi tasdiqlaydigan boshqa lokal hujjatlar yoxud mehnat shartnomasida belgilab qo‘yiladi[1].

Mehnat qonunchiligi u yoki bu mehnat sharoiti noqulay yoxud o‘ziga xos bo‘lgan ishlar uchungina bevosita qo‘shimcha ta’tillarni berishni nazarda tutadi va qonun hujjatlarida ham qo‘shimcha ta’tillarni berishning boshqa hollari nazarda tutilishi mumkinligini belgilab beradi. Qo‘shimcha ta’tillar quyidagi xodimlarga belgilanishi kerak:

1) mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo‘lgan xodimlarga;

2) o‘ziga xos bo‘lgan, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga;

3) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda[2].

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 232-moddasi o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki yoki undan ortiq bolasi yoxud o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi bor ayollarga har yili ijtimoiy qo‘shimcha ta’til berilishini nazarda tutadi.

Qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan hollardan tashqari, qo‘shimcha ta’tillar jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida yoki xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlarida nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Agar qo‘shimcha ta’tillar ko‘rsatilgan tartibda nazarda tutilgan bo‘lsa, ularning xodimlarga berilishi qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan qo‘shimcha ta’tillarni berish singari majburiydir.

Mehnat sharoiti noqulay ishlarda ishlovchilar deb hisoblanadigan xodimlarning toifalari attestatsiyalash orqali aniqlanadi. Ushbu xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 1996 yil 17 fevralda tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996 yil 28 mayda 247-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Mehnat sharoitlaridan kelib chiqib mehnat sharoitlarini baholash va ish joylarini attestatsiyadan o‘tkazish uslubiyoti asosida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 137-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomasi bilan noqulay mehnat sharoitida ishlaganlik uchun yillik qo‘shimcha ta’tillarni berish tartibi va shartlari tartibga solingan bo‘lishi kerak. Ish joylarini attestatsiyalash natijalariga doir ma’lumotlar mehnat sharoiti noqulay ishlar uchun qo‘shimcha ta’tillarning muddatini belgilashga asos bo‘ladi. Bunda attestatsiyalash natijalarining ko‘rsatkichlari mehnat sharoitlarini baholash uslubiyotining maxsus jadvalidagi gigiyenik mezonlarga mos bo‘lishi kerak.

Jadvalning tegishli ustunida ko‘rsatilgan qo‘shimcha ta’til muddati qonun hujjatlarida belgilangan deb topiladi va shu ish joylarida ishlayotgan xodimlarga ish beruvchi berishi shart bo‘lgan eng kam muddat hisobladi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta’tillarni 48 ish kunigacha doirada jamlashga yo‘l qo‘yishini hisobga olganda o‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoitida ishlaganlik uchun qo‘shimcha ta’til uslubiyotga muvofiq 33 ish kunigacha belgilanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137-moddasida mehnat sharoiti noqulay va o‘ziga xos bo‘lgan ishlar uchun beriladigan yillik qo‘shimcha ta’til haqidagi muhim qoidalar belgilangan. Mehnat jarayonida sog‘lig‘iga fizikaviy, kimyoviy, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta’sir etadigan xodimlarga noqulay mehnat sharoitida ishlaganliklari uchun yillik qo‘shimcha ta’til beriladi.

Korxonalarda qo‘shimcha ta’til olish huquqini beruvchi ishlar, kasblar va lavozimlar ro‘yxati, ta’tillarning muddati, ularni berish tartibi va shartlari tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomasi bilan (agar ular tuzilmaydigan bo‘lsa, - kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib ish beruvchi tomonidan) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

tasdiqlaydigan mehnat sharoitlarini baholash uslubiyoti asosida belgilanadi[3].

Mehnat sharoiti o‘ziga xos bo‘lgan ishlar uchun, shuningdek o‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoiti uchun qo‘shimcha ta’tilning eng kam muddati, bunday ta’tilni berish shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

O‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoitida ishlovchi xodimlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan. Shu qarorning o‘zi mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda band bo‘lgan shaxslar uchun ish vaqtining eng ko‘p muddatini va qo‘shimcha ta’tilning eng kam muddatini nazarda tutadi. Ana shu xodimlar qo‘shimcha ta’tilining muddati o‘n ikki ish kunidan kam bo‘lishi mumkin emas. Biroq, o‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoitida ishlayotganlar qo‘shimcha ta’tilining eng kam muddati 12 ish kunidan ortiq bo‘lishi ham mumkin[4].

Gap shundaki, bu xodimlar uchun qo‘shimcha ta’tilning eng kam muddati ham O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirliklari tomonidan tasdiqlangan uslubiyot asosida o‘tkaziladigan ish joylarini mehnat sharoitlariga ko‘ra attestatsiyalash natijalariga qarab aniqlanadi. Shu boisdan, agar attestatsiya natijalariga ko‘ra mazkur xodim 12 emas, balki, masalan, 24 ish kuni davom etadigan qo‘shimcha ta’til olish huquqiga egaligi aniqlansa, bu xodimga xuddi shuncha muddatli qo‘shimcha ta’til beriladi. 24 ish kuni qilib belgilangan ta’til xodimga berilishi lozim bo‘lgan ta’tilning eng kam muddati deb hisoblanib, uning muddati qisqartilishi mumkin bo‘lmagan holda, uning muddati korxonaning foydasi hisobidan uzaytirilishi mumkin. Bu ta’tillarni uzaytirish qoidalari jamoa kelishuvida, jamoa shartnomasida yoki xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida nazarda tutilishi mumkin[5].

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 138-moddasida og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlaridagi ish uchun yillik qo‘shimcha ta’til haqidagi qoidalar mustahkamlangan[6].

Tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir va noqulay joylar ro‘yxati hamda yillik qo‘shimcha ta’tilning eng kam muddati O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilab qo‘yiladi.

Tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalarida tabiiy-iqlim sharoitlari og‘ir va noqulay boshqa joylarda ham xodimlarga yillik qo‘shimcha ta’til berish nazarda tutilishi mumkin.

Mehnat sharoiti o‘ziga xos bo‘lgan ishlar uchun qo‘shimcha ta’tilning eng kam muddati va uni berish shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarda ish bajarayotgan xodimlarga beriladigan qo‘shimcha ta’tillarning eng kam muddatini va shunday joylar (tumanlar) ro‘yxatini belgilab qo‘yadi.

Yuqoridagilarga ko‘ra: O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini “Haq to‘lanadigan yillik mehnat ta’tilini olish huquqi” deb nomlanuvchi 133^1-modda bilan to‘ldirish, mazkur moddada haq to‘lanadigan yillik mehnat ta’tilini olish huquqi mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan barcha xodimlar uchun kafolatlanishi hamda Mehnat kodeksida nazarda tutilgan asoslarda vujudga kelishi, haq to‘lanadigan yillik mehnat ta’tilini olish huquqidan voz kechish, uni rad qilish yoki cheklash mumkin emasligi, mazkur huquqni to‘liq yoki qisman rad qilish haqidagi har qanday kelishuv haqiqiy hisoblanmasligi haqidagi qoidalar aks etishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 135-moddasida 30 kalendar kundan iborat uzaytirilgan asosiy ta’til ishlayotgan I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlarga beriladi. Yillik uzaytirilgan asosiy ta’tillarni olish huquqiga ega bo‘lgan nogironligi bo‘lgan xodimlar toifasini kengaytirish maqsadida ushbu ro‘yxatga “Chernobil AESdagi avariya tufayli mayib bo‘lish yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo‘lgan xodimlar” ni ham kiritish

lozim.

Xullas, Yangi O‘zbekiston mehnat qonunchiligi mamlakatimizda yuz berayotgan barcha ijobiy o‘zgarishlar va erishayotgan yutuqlarimizni o‘zida aks ettirishi, eng muhimi, inson, uning huquq va manfaatlari har narsadan ulug‘ ekanligi haqidagi g‘oyalarimizga asoslangan bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun”, - degan tamoyilga asoslangan Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohadagi islohotlar, xalqimizning hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilganligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.
2. https://uza.uz/uz/posts/harakatlar-strategiyasi-va-taraqqiyot-strategiyasi-farqli-zhihatlari-nimada_342807
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 22-сон, 257-модда.
4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.
5. https://lex.uz/docs/5841063
6. https://t.me/mehnathuquqi

Usmanova M.A., Axmedova M.T. Yangi O‘zbekistonda inson manfaati bosh omil

Maqolada mamlakatimizda bozor talablari va tamoyillarining ijtimoiy hayotimizga tobora chuqurroq singib borayotgani, iqtisodiyotda xususiylashtirish rolining ortishi jarayonlarida dam olish vaqtini huquqiy tartibga solinishi yoritilgan. Shuningdek, dam olish huquqi insonning tabiiy va ajralmas huquqi sifatida ko‘plab xalqaro standartlarda o‘z aksini topganligi, qolaversa, qonun hujjatlarida ham qo‘shimcha ta’tillarni berishning boshqa hollari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat huquqi, inson, inson omili, inson huquqlari, mehnat kodeksi, ta’til, qo‘shimcha ta’til, dam olish huquqi, mehnat munosabatlari, xalqaro huquq, mehnat sharoitlari.

Усманова М.А., Ахмедова М.Т. Человеческий фактор - главный фактор Нового Узбекистана

В статье подчеркнуто влияние проникновения рыночных принципов и стандартов в общественную жизнь нашей страны, затронуты вопросы правового регулирования времени отдыха в экономике в условиях возросшей роли приватизации, так как право на отдых является естественным и неотъемлемым правом человека и отражено во многих международных документах и законодательстве, также рассмотрены случаи предоставления дополнительных отпусков.

Ключевые слова: трудовое право, человек, человеческий фактор, права человека, трудовой кодекс, отпуск, дополнительный отпуск, право на отдых, трудовые отношения, международное право, условия труда.

Usmanova M.A., Akhmedova M.T. The human factor in New Uzbekistan is the main factor

The article emphasizes deeper penetration of market requirements and principles into public life of our country, the legal regulation of rest time in the context of the increased role of privatization in the economy. Also, the right to rest is reflected in many international standards as a natural and inalienable human right, in addition, other cases of granting additional vacations are also covered by legislation.

Key words: labor law, person, human factor, human rights, labor code, vacation, additional vacation, right to rest, labor relations, international law, working conditions.

Ismailov Isamiddin,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jamoat xavfsizligini ta’minlash” kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor;
Narzullayev Otabek,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

JAMOAT XAVFSIZLIGINI HUQUQIY TA’MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmi va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ko‘pgina islohotlar amalga oshirilib, so‘nggi yillarda mazkur sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bir qator qonunlar, jumladan: O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi (1992), “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1992), Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994), Jinoyat kodeksi (1994), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1996), “Narkotik moddalar va psixotrop vositalar to‘g‘risida”gi (1999), “Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda holatlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi (1999), “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi (2000), “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi (2000), “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi (2000), “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida”gi (2001), “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi (2007), “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi (2009), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi (2013), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2014), “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi (2015), “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1993, 2016), “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (1997, 2016), “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (1997, 2016), “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (2018), “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi (2021), “Kirberxavfsizlik to‘g‘risida”gi (2022), “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi (2022), “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1999, 2022) qonunlari qabul qilinib, ijrosi ta’minlanmoqda.

Jamiyatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash uchun bevosita mas’ul bo‘lgan ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi, “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi [1].

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida 2017 yil avgust oyida Milliy gvardiya mamlakat qurolli kuchlarining mustaqil qo‘shin turi sifatida tashkil etildi [2], “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi [3], shuningdek ularning ichki ishlar organlari bilan hamkorligi [4], o‘zlariga biriktirilgan obyekt va hududlarda jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyati yo‘lga qo‘yildi [5].

Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz kabi turistik hududlarda,

shuningdek poytaxt mintaqasida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4229-son, “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3786-son, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4075-son, “Toshkent viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4343-son qarorlari qabul qilindi [6, 7, 8, 9].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni [10], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori [11] va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda mahallaning o‘rnini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son farmoni qabul qilinib, “fuqarobay”, “oilabay” va “mahallabay” ishlash tizimi joriy etildi [12, 13, 14].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi PF-27-son farmonining qabul qilinishi mamlakatimiz milliy xavfsizligining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat bo‘ldi [7].

Ammo, olib borilayotgan tadqiqotlar davomida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarga qaramasdan jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta’minlashda bir qator bo‘shliqlar mavjudligi ma’lum bo‘lmoqda.

Xususan, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazilishida jamoat xavfsizligi ta’minlash mexanizmini tartibga soluvchi, xususan, ushbu tadbirlar jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlarining vazifalari, huquqlari, majburiyatlari va vakolatlari belgilovchi normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

Ya’ni, miting, yig‘ilish va namoyishlarni o‘tkazish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 201-moddasida hamda Jinoyat kodeksining 217-moddasi yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan bo‘lsa-da, mazkur tadbirlarni uyushtirish va o‘tkazish, tadbir subyektlarining harakatlari normativ-huquqiy jihatdan tartibga solinmagan.

Shu o‘rinda, Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalari”ning 2-bandiga ko‘ra, ushbu Qoidalar yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari va namoyishlarni o‘tkazishga tatbiq etilmasligi belgilangan [15].

Bu esa, o‘z navbatida, miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini

samarali tashkil etilishida o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi 2019 yil 12 sentabr kuni birinchi marotaba (ID 3875) hamda o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan 2020 yil 18 avgust kuni ikkinchi marotaba (ID 21021) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali “regulation.gov.uz” saytida xalq muhokamasiga qo‘yilgan bo‘lsa-da, qabul qilinmasdan qolmoqda.

Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziri R. Davletov bugungi kunda O‘zbekiston qonunchiligida yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilanganligi, ammo tartibning o‘zi qayd etilmaganligi, ya’ni miting, yig‘ilish, namoyish hamda ko‘cha yurishlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi tizimli ravishda tartibga solinmaganligi, Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori esa, yig‘ilish, miting, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirishga taalluqli emasligi bo‘yicha o‘z e’tirozlarini bildirib o‘tgan.

Mazkur huquqiy bo‘shliq hanuzgacha, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida ko‘rsatilgan qoidalarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon bermasdan kelayotganligi, davlat dasturi asosida Ichki ishlar vazirligi tomonidan “Miting, yig‘ilish va namoyishlar to‘g‘risida”gi qonun loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, huquqiy ekspertizadan qaytarilganligi va bugungi kungacha qabul qilinmasdan qolayotganligi, lekin ushbu qonunning qabul qilinishi dolzarb ahamiyatga egaligi ta’kidlangan [16, 17].

O‘zbekistonda miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligi esa turli hisobotlarda va inson huquqlari bo‘yicha dunyo reytinglarida quyi darajadagi ko‘rsatkichlarni namoyon etmoqda.

Jumladan, 2021 yilda Freedom House tashkilotining “Siyosiy va fuqarolik huquqlari darajasi bo‘yicha dunyo davlatlari reytingi”da O‘zbekiston 209 ta davlatdan 189-o‘rinni egallagan va mamlakatda “inson huquqlari mustaqil emas” deb topilgan [18].

World Justice Project tashkiloti tomonidan 2021 yilda qonun ustuvorligi indeksi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston yig‘ilishlar tashkil etish erkinligining kafolatlanganligi reytingida 139 ta davlat ichida 127-o‘rinni egallagan [19].

Shuningdek, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti qoshidagi Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining 2019 yil 22 dekabrda mamlakatimizda o‘tkazilgan parlament saylovlari bo‘yicha yakuniy hisobotidagi kamchilik sifatida ham respublikamizda fuqarolarning ijtimoiy faolliklarini tartibga soluvchi birorta normativ-huquqiy hujjat mavjud emasligi ko‘rsatilgan [20].

Rossiya siyosatshunoslar jamiyati ijrochi direktori, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti siyosatshunoslik fakulteti professori Igor Kuznesov umumiy muhokamaga kiritilgan “Miting, yig‘ilish va namoyishlar to‘g‘risida”gi qonun loyihasiga izoh berar ekan, O‘zbekistonda namoyish va yig‘ilishlarni qonuniy yo‘l bilan tartibga solish zarurati allaqachon pishib yetilganligini ta’kidlagan [21].

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, mamlakatimizda miting, yig‘ilish va namoyishlarni uyushtirish, ularni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlash mexanizmini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi PF-27-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”ning 13-bandida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tartibga soluvchi qonun loyihasi ishlab chiqilishi va

qabul qilinishi belgilangan.

Shu o‘rinda, miting, yig‘ilish va namoyishlar boshqa ommaviy tadbirlarga nisbatan bir qator o‘ziga xos jihatlarga ega ekanligini inobatga olib, alohida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mazkur hujjatning qabul qilinishi esa, albatta, jamoat xavfsizligini huquqiy jihatdan ta’minlashga qaratilgan yana bir muhim qadam hisoblanib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, shuningdek mazkur tadbirlarni o‘tkazish davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tartibga solishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ-407-сон қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 14.03.2022 й., 03/22/759/0213-сон.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi [Электрон манба] // URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BUzbekiston_Respublikasi_Milliy_gvardiyasi

3. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги ЎРҚ-647-сон қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2020 й., 03/20/647/1569-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 июндаги “Тошкент шаҳрида жамоат тартибини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3786-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида”ги ПФ-27-сон фармони [Электрон манба] // URL: https://lex.uz/pdfs/5749291

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 мартдаги “Транспорт ва туризм объектларида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарали тизимини жорий этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4229-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.01.2022 й., 06/22/52/0029-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 июндаги “Тошкент шаҳрида жамоат тартибини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3786-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 декабрдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4075-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.08.2021 й., 07/21/5235/0840-сон, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 майдаги “Тошкент вилоятида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари куч ва воситаларини бошқаришнинг сифат жиҳатдан янги тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПҚ-4343-сон қарори

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,

26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка карши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича кўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.04.2021 й., 07/21/5050/0280-сон.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сон фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.

13. “Энди маҳаллада “фуқаробай” ишлаймиз” – Шавкат Мирзиёев [Электрон манба] // URL: https://kun.uz/49206105

14. Маҳаллабай ишлаш тизимининг моҳияти нимада? Унинг амалий самаралари қандай? – Вазир шу билан боғлиқ долзарб саволларга батафсил жавоб қайтарди [Электрон манба] // URL: https://xs.uz/uzkr/post/mahallabaj-ishlash-tizimining-mohiyati-nimada-uning-amalij-samaralari-qandaj-vazir-shu-bilan-bogliq-dolzarb-savollarga-batafsil-zhavob-qajtardi

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 29 июль кунидаги “Оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 205-сон Қарори [Электрон манба] // URL: https://lex.uz/docs/2438871

16. Ўзбекистонда митинглар ўтказиш СССР қонунлари билан тартибга солинмайди – адлия вазири [Электрон манба] // URL: https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/15/davletov/

17. Адлия вазири Ўзбекистонда митинглар ўтказиш СССР қонунлари билан тартибга солиниши ҳақидаги маълумотларни рад этди [Электрон манба] // URL: https://www.daryo.uz/k/2021/02/15/adliya-vaziri-ozbekistonda-mitinglar-otkazish-SSSR-qonunlari-bilan-tartibga-solinishi-haqidagi-malumotlarni-rad-etdi

18. Рейтинг стран мира по уровни политическим и граждаским правам [Электрон манба] // URL: https://www.gtmarket.ru/ratings/freedom-in-the-world

19. Индекс верховенства права WJP [Электрон манба] // URL: https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/country/2021/Uzbekistan/Fundamental%20Rights/

20. Ички ишлар вазирлиги митинг, йиғилиш ва намойишлар тўғрисидаги қонун лойиҳаси бўйича баёнот берди [Электрон манба] // URL: https://uza.uz/uz/posts/-ichki-ishlar-vazirligi-miting-yiilish-va-namoyishlar-t-ris-21-08-2020

21. Эксперт: принятие в Узбекистане закона о митингах – это решение “на вырост” [Электрон манба] // URL: https://uz.sputniknews.ru/20200821/Ekspert-prinyatie-v-Uzbekistane-zakona-o-mitingakh--eto-reshenie-na-vyrost-14815881.html

Ismailov I., Narzullayev O. Jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlashni takomillashtirishning ayrim masalalari

Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shuningdek, jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlashda mavjud muammolar tahlil qilinib, miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlash mexanizmini huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi ilmiy-amaliy va huquqiy jihatdan asoslantirilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlash, miting, yig‘ilish, namoyish.

Исмаилов И., Нарзуллаев О. Отдельные вопросы совершенствования правового обеспечения общественной безопасности

В данной статье рассмотрены проведённые реформы и принятые нормативно-правовые акты в области общественной безопасности. Также проанализированы отдельные существующие проблемы в сфере правового обеспечения общественной безопасности, кроме того юридически обоснованы вопросы научно-практического применения механизма правового регулирования по обеспечению общественной безопасности при проведении митингов, собраний и демонстраций.

Ключевые слова: общественная безопасность, правовое обеспечение общественной безопасности, митинг, собрание, демонстрация.

Ismailov I., Narzullayev O. Some issues of improving the legal provision of public safety

In this article, the reforms carried out and the normative legal acts adopted in the field of public safety are considered. Some existing problems in the legal provision of public safety are also analyzed, in addition, the issues of legal regulation of the mechanism for ensuring public safety during rallies, meetings and demonstrations are scientifically, practically and legally justified.

Key words: public safety, legal provision of public safety, meeting, assembly, demonstration.

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Djumayev Timur Taxirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

MUSTAQILLIK YILLARIDA HARBIY SOHADAGI QONUN HUJJATLARINI SHAKLLANISHI VA TAKOMILLASHUVI

Har bir mamlakatda mudofaa va xavfsizlik sohasini, Qurolli Kuchlar faoliyatini huquqiy tartibga solish, ichki va tashqi xavfsizlikni ta’minlash jarayonida yuzaga keluvchi murakkab harbiy munosabatlarni tartibga solishda qonun hujjatlarining o‘rni va ahamiyati katta. Ushbu sohada qonun hujjatlarining holati va mukammalligi davlatning harbiy-siyosiy faoliyatini samarali bo‘lishiga bevosita ta’sir etadi. Davlatning harbiy-siyosiy faoliyatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonun hujjatlari holati va takomillashtirilishiga bevosita bog‘liq.

Shunday ekan, harbiy sohadagi qonun hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “qonun – zamonaviy jamiyat huquqiy hayotining asosiy fenomeni va o‘zak yuridik tushunchasidir. O‘zida tizimlashgan ijtimoiy manfaatlarni ifodalagani holda qonun ijtimoiy munosabatlarning bosh tartibga soluvchisi, shaxs huquq va erkinliklarining kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun mazmunida va uni hayotga tatbiq etishda huquqiy mafkura namoyon bo‘ladi hamda huquqiy siyosat amalga oshiriladi”[1]. Mustaqillik sharoitida, ya’ni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish uchun samarali huquqiy mexanizmlarni yaratishga, yangi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy negizlarini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratildi[2], xususan harbiy sohada ham.

Qonunchilik va normativ-huquqiy bazadagi kamchilik va nuqsonlarga imkon qadar tezroq barham berish, huquqni qo‘llash amaliyotida g‘oyat jiddiy o‘zgarishlarni joriy etish, huquqni muhofaza qilish va sud organlarining faoliyatida faqat va faqat qonunga rioya etilishini ta’minlash bilan bog‘liq ishlarni takomillashtirish darkor[3].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son farmonida “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni imkon qadar qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo‘llashga ta’sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish hamda asossiz cheklovlar, ortiqcha ma’muriy tartib-taomillar va tartibga solishning eskirgan mexanizmlarini bartaraf etish hisobiga aniq sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash”[4] degan ustuvor vazifa belgilangan.

Harbiy qonun hujjatlari tizimi tushunchasiga to‘xtalib o‘tishdan oldin, “tizim” va “qonun hujjatlari tizimi” tushunchalariga aniqlik kiritib o‘tish maqsadga muvofiq. O‘zbek tilining izohli lug‘atida tizim “o‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi, majmui; biror-ish faoliyatni tashkil etish, amalga oshirishning shakl va tartib-qoidalari majmui”[5] sifatida, boshqa manbalarda esa, “bir qator o‘zaro bog‘liq yoki mustaqil bo‘lsa-da, bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi qismlarning birgalikdagi bir butun murakkab yaxlit holatga kelishi”[6], deb ta’rif berilgan.

Huquq tizimi – huquqning ichki tuzilishi, ichki qurilishi (tarkibi) bo‘lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini hamda qismlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va nisbatni ko‘rsatadi[7]. Huquq tizimi turli-tuman, lekin o‘zaro mustahkam aloqa bo‘lgan yuridik normalar yig‘indisidir[8]. Qonun hujjatlari tizimi deganda, huquqiy normalar ifodalanish

shakli tizimi (ularning manbalari) tushuniladi[9].

Mamlakatimiz qonunchilik tizimi o‘z ichki salohiyatiga ko‘ra, huquqiy davlatni shakllantirish uchun huquqiy poydevor vazifasini bemalol o‘tay oladi. Shunga asoslanib ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi huquqiy davlatning iqtisodiy asoslari, siyosiy shakli, huquqiy madaniyati va ma’naviy ustunlari vujudga kelishi hamda rivojlanishiga to‘la-to‘kis xizmat qiladi [10].

Masalaga oydinlik kiritish uchun bir guruh huquqshunos olimlarning qarashlariga murojaat etsak. Masalan, prof. R.Z. Livshitsning fikricha, qonunchilik tushunchasini aniqlash – bu faqatgina nazariyaning muammosi emas. Bu masalaga yondashuv huquqni qo‘llash va huquqiy tartibga solish masalalari bilan ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qonunchilik tushunchasini ikki xil, ya’ni keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Qonunchilik keng ma’noda qonunchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi organ tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar shuningdek, qonun osti hujjatlari (boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar)dan iborat. Qonunchilikni tor ma’noda tushunish esa, faqatgina qonun chiqaruvchi organning hujjatlari (qonun va parlament qarorlari)ni nazarda tutadi[11].

Davlat va huquq umumiy nazariyasi asarida (M., 1998) yozilishicha qonunchilik huquqning, huquq manbalari tizimining mavjudlik hodisasini ifodalaydi, huquq qonunchilikdan tashqarida yashay olmaydi. Qonunchilik vositasida huquqiy qoida va talablar rasmiy huquqiy norma ko‘rinishiga ega bo‘ladi, ularni yagona normativ-huquqiy hujjatga jamlashga imkoniyat yaratiladi[12].

Huquqshunos olim A.Ya. Suxarev tahriri ostida chop etilgan yuridik ensiklopediyada «qonunchilik» iborasiga quyidagi ta’rif berilgan. Qonunchilik keng ma’noda obyektiv huquqni ifodalashning tashqi shakli, xalq irodasining davlat-hokimiyati irodasi tarzida ifodalanishi, ushbu irodaning umummajburiy qoidalar sifatida mustahkamlanishidir; qonunchilik huquq yaratish vakolatiga ega bo‘lgan idoraning chiqaradigan me’yoriy hujjatlarning (parlament tomonidan va referendum natijasida yaratiladigan qonunlardan tortib, to mahalliy hokimiyat idoralari qabul qiladigan hujjatlargacha) kompleksi[13].

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ta’kidlanishicha ham huquqiy amaliyotda va nazariyotda «qonunchilik» iborasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Qonunchilik (keng ma’noda) – mamlakatda amal qiluvchi barcha normativ-huquqiy aktlarning yig‘indisi bo‘lib, bunda davlat hokimiyatining oliy vakillik va boshqaruv organlari chiqaradigan me’yoriy hujjatlar nazarda tutiladi. Sof, tor ma’nodagi qonunchilik deganda esa, qonunlar va parlament palatalarining normativ qarorlari yig‘indisi tushuniladi[14].

Darhaqiqat, ijtimoiy hayotning boshqa sohalari kabi harbiy xizmatni o‘tash jarayonida vujudga keluvchi munosabatlar ham harbiy qonun hujjatlari tizimi bilan tartibga solinadi.

Mustaqillik yillarida harbiy sohadagi qonunchilikni shakllanishi va rivojlanishini bir qancha bosqichlar shaklida izohlab berish mumkin.

Birinchi qadam, 1990 yil 20 iyunda *“Mustaqillik deklaratsiyasi”*[15] ni qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin. Deklaratsiya bilan O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Davlat mustaqilligini e’lon qilib, respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligi, davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib o‘zgartirilishi mumkin emasligi, ichki va tashqi siyosatda mustaqillik kabi muhim masalalar huquqiy tartibga solindi.

Ikkinchi muhim qadam sifatida, 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining *“O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni*[16] ni keltirib o‘tish mumkin. Mazkur Konstitutsiyaviy qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil

belgilashi (3-m), davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmas bo‘lib, uning xalqi o‘z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o‘zgartirilishi mumkin emasligi (4-M), O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega ekanligi, suveren O‘zbekiston Respublikasi hududida SSSR Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o‘zida saqlab qolishi (6-m) bilan bog‘liq O‘zbekistonning huquqiy maqomi belgilab berilgan.

Uchinchi qadam 1992 yil 3 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni[17]ni qabul qilinganligi bilan izohlash mumkin. Ushbu Qonun davlat idoralari va mahalliy boshqaruv idoralarining O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyatini ta’minlash borasidagi ishlarni yo‘lga qo‘yish, boshqarish asosini, huquq va majburiyatlarini belgilab bergan edi. Mazkur Qonunga 2001 yil 11 mayda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib yangi tahrirda qabul qilindi.

To‘rtinchi qadam sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi[18]ni qabul qilinganligini keltirib o‘tish mumkin. Asosiy qonun bilan mudofaa va xavfsizlik masalalari hamda fuqarolarning harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq burchlarining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari belgilab berildi. Masalan, 3-moddasiga O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasligi, 52-moddaga muvofiq O‘zbekistonni himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligi, 93-moddada O‘zbekiston Respublikasining Prezidentini O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish, 125 va 126-moddalarda mudofaa va xavfsizlik masalalarini belgilash va boshqalar kiritilgan.

Beshinchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni[19]ni qabul qilinishi bilan izohlash mumkin. Ushbu qonun bilan harbiy sudlar tizimi, harbiy sudlarning tarkibi, harbiy sudlar sudloviga taalluqli ishlar va harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar qonuniy tartibga solindi. Mazkur Qonun 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan 162-II-son Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 28 iyuldagi O‘RQ-703-son Qonunlari bilan yangi tahrirda qabul qilingan.

Oltinchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni[20]ni qabul qilinishi bilan izohlash mumkin. Qonun bilan harbiy xizmat turlari, harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar tarkibi, harbiy unvonlar, harbiy lavozimlar, harbiy xizmatchilarning harbiy kiyim-kechak va farqlovchi nishonlari, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash, fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish, harbiy xizmatga chaqirilish va kirish, harbiy xizmatni o‘tash, rezervdagi xizmat, muqobil xizmat, harbiy ro‘yxat, safarbarlik bo‘yicha chaqirilish to‘g‘risida va harbiy xizmatdan bo‘shatish, harbiy xizmatchilarning, oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining (tinglovchilarining), harbiy yig‘inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tayotgan shaxslarning moddiy javobgarligi, fuqarolarning harbiy tajovuz yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berish hollariga mo‘ljallangan harbiy tayyorgarligi kabi masalalar huquqiy tartibga solingan.

Navbatdagi yettinchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 25 aprelda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni[21] bilan izohlash mumkin. Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmatni o‘tashi bilan bog‘liq munosabatlar, xususan rezervga kirish, rezerv toifalari, rezervchilarni tanlab olish, ularni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, rezervchilarni tayyorlash, harbiy yig‘inlarning turlari va muddatlari, harbiy yig‘inlarda qatnashishdan ozod qilish, rezervchilarni tayyorlashga rahbarlik qilish

va boshqa masalalar huquqiy tartibga solindi.

Sakkizinchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni[22] bilan izohlash mumkin. Mazkur Qonun bilan nafaqat O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari, shu bilan birga Vazirlik tizimidagi harbiy bo‘linmalarning faoliyati, ularning harbiy xizmatchilarining huquqiy maqomi ham tartibga solingan.

To‘qqizinchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni[23] bilan izohlash mumkin. Mazkur Qonun harbiy sohada O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlashga doir prinsiplar va yondashuvlarni belgilaydi hamda doktrinaning harbiy-siyosiy, harbiy-strategik, harbiy-iqtisodiy jihatlarini huquqiy tartibga soladi.

O‘ninchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 5 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun[24] bilan izohlash mumkin. Mazkur Qonun bilan Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta’minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat faoliyati tartibga solingan. Shuningdek, ushbu Qonunda Davlat xavfsizlik xizmati (DXX), uning davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar bilan hamkorligi, huquq va majburiyatlari, DXXning harbiy xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus kuch va vositalarni, o‘qotar qurolni qo‘llash, ular tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish, DXXga ko‘maklashish, uning harbiy xizmatchilari, ularning huquqiy holati va ijtimoiy-huquqiy himoyasi va xizmatning axborot, moliyaviy va moddiy-texnika ta’minoti kabi masalalarini ham belgilab berilgan.

O‘n birinchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” Qonuni[25]ning 2020 yil 18 noyabrda qabul qilinishi bilan izohlash mumkin. Ushbu Qonun bilan Milliy gvardiyaning faoliyatini tashkil etish, Milliy gvardiyada harbiy xizmatchilar (xodimlar) tomonidan harbiy xizmatni (xizmatni) o‘tash tartibi va shartlari, uning huquq va majburiyatlari, Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni, o‘qotar qurolni qo‘llash, tashkilotlarning va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish, uning harbiy xizmatchilarini (xodimlarini) huquqiy va ijtimoiy himoya qilish hamda Milliy gvardiyaning moliyaviy va moddiy-texnika ta’minoti, xalqaro hamkorlik masalalari tartibga solingan.

O‘n ikkinchi qadamni, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 6 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni[26]ning qabul qilinishi bilan izohlash mumkin. Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining tizimi va uning huquqiy maqomi, uning huquq va majburiyatlari belgilandi, uning harbiy xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni, sovuq va o‘qotar qurolni qo‘llash asoslari tartibga solindi, ushbu organning harbiy xizmatchilari va xodimlarining maqomi, organning moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa ta’minoti bilan bog‘liq masalalar huquqiy tartibga solindi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan harbiy sohadagi qonun hujjatlari va ularning mazmuniga e’tibor qaratar ekanmiz, ularning ayrimlaridagi takrorlanishlar harbiy qonun hujjatlarini tizimlashtirishga ehtiyoj mavjudligini taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 25 aprelda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinganiga qaramay O‘zbekiston

Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunining 5-bobi “Rezervdagi xizmat” deb nomlanib rezervda bo‘lish yoshining chegarasi, rezerv darajalari, rezerv toifalari, harbiy yig‘ilishlarda qatnashish, harbiy yig‘inlarda qatnashishdan ozod qilish va boshqa bir qator masalalar belgilangan bo‘lib, mazkur ikki qonunda ayni bir xil masalalar tartibga solinganini ko‘rish mumkin.

Fikrimizcha, qonunlardagi takrorlanishlarni oldini olish hamda rezervdagi xizmat bilan bog‘liq barcha masalalarni «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida»gi Qonunda aks etganligidan kelib chiqib, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonunning “Rezervdagi xizmat” deb 5-bobi ni chiqarib tashlash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi barcha tuzilmalar, xususan Mudofaa, Milliy gvardiya, Ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati va Prezident Davlat xavfsizlik xizmati kabilarning faoliyati qonun bilan tartibga solingan. Biroq, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi PQ-4276-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risidagi NIZOM” bilan tartibga solingan.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son Farmoni[27] bilan tasdiqlangan “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi”ning 1-bobini 7-bandida “To‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish” vazifasi belgilangan. Fikrimizcha, Qurolli Kuchlar tizimidagi tuzilmalar singari Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini ham qonun bilan tartibga solish maqsadga muvofiq.

Darhaqiqat, harbiy qonun hujjatlari tizimi kompleksliligi bilan tavsiflanadi, ya’ni ushbu huquq tarmog‘i huquqiy tartibga solishning yagona usuli va mexanizmi bilan o‘zaro bog‘lanmagani holda muayyan davrda vujudga kelgan va huquqiy tizimga ajralib chiqqan huquq normalari majmuini birlashtiradi hamda harbiy huquq normalari harbiy huquq oldida turgan vazifalarni hal qilish uchun boshqa huquq tarmoqlari normalari bilan ham bog‘lanadi.

Mamlakatimizda huquqshunos olimlar tomonidan harbiy qonun hujjatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishining turli jihatlari fundamental tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, biroq fan nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Harbiy qonun hujjatlari harbiy huquqning asosiy manbai hisoblanib, yuridik adabiyotlarda “harbiy qonunchilik qonunchilikning kompleks tarmog‘i sifatida davlat, ma’muriy, moliyaviy, yer, jinoyat va boshqa huquqning sohalarini, davlatning harbiy sohasidagi faoliyatini, shu jumladan, harbiy tashkilotning o‘ziga xos hayotiy faoliyatini tartibga soluvchi normalarini o‘z ichiga oladi”[28] sifatida ta’riflangan.

Huquqning barcha tarmoqlari jamiyatning yutuqlarini, ilg‘or g‘oyalarni va konsepsiyalarni aks ettirib, ularni u yoki bu huquqiy normalarning yig‘indisida (qonunda, kodeksda va boshqalarda) mujassamlashtirishga undaydi. Kodifikatsiyalangan hujjatning yo‘qligi ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi kelgusida takomillashtirishni talab etishi haqidagina dalolat beradi.

Masalan, ilmiy yuridik jamoa tomonidan ko‘p marotaba xorijiy mamlakatlar singari harbiy munosabatlar sohasida kodifikatsiyalangan hujjat (Harbiy kodeks yoki Harbiy xizmat kodeksi)ni ishlab chiqish va qabul qilish masalasi ko‘tarilgan. Huquq normalari quyi tizimining umumiy tamoyillari va funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan huquq sohasining mavjud ta’rifiga ham e’tibor qaratish lozim, ular o‘ziga xos yuridik usul va vositalar yordamida bir xil ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir keng sohasini (doirasini) tartibga soladi. Harbiy huquq “chegara zonalari”ning mavjudligi bilan tavsiflanadi, ya’ni bir xil masalalarning tartibga solinishi huquqning sohalari tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy qonunchilik xalqaro shartnomalarni ham o‘z ichiga oladi. “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”[29]. O‘zbekistonning harbiy xizmatchilarini huquqiy maqomi Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi[30], O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi qaror[31] bilan belgilanadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi nafaqat milliy huquq bilan balki, xalqaro, mintaqaviy va lokal hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunday mamlakatlarning harbiy xizmatchilarni maqomi, birinchi navbatda, shu bilan aniqlanadiki, ular o‘z davlatida belgilangan barcha huquq va majburiyatlar bilan o‘z davlatining harbiy xizmatchilari bo‘lib qolishadi, boshqacha aytganda, o‘z davlatlarining qonunlarida nazarda tutilgan barcha huquq va imtiyozlarni saqlab qoladilar. Shu bilan birga, tinchlikni saqlash operatsiyalarini o‘tkazish paytida milliy kontingentning harbiy xodimlari tarkibida o‘z davlatidan tashqarida bo‘lganida, harbiy xizmatchilar boshqa davlatlar o‘z yurisdiksiyasini amalga oshiradigan hududda vazifalarni bajaradilar. Harbiy xizmatchilar harakatlarining qonuniyligi, ularning huquq va majburiyatlari, imtiyoz va immunitetlarining qonuniy mustahkamlanishi xalqaro shartnomalarda aks ettiriladi.

Boshqa davlatlar hududida harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini belgilaydigan MDHga a’zo davlatlar o‘rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalarga Rossiya va MDHga a’zo davlatlar o‘rtasida Rossiya Federatsiyasining harbiy tuzilmalarining holati va joylashuv shartlari to‘g‘risida ikki tomonlama xalqaro shartnomalarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday shartnomalar Tojikiston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belorus Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Turkmaniston, Ukraina va Gruziya Respublikasi bilan tuzilgan.

Biroq, O‘zbekiston hech qanday harbiy bloklarga qo‘shilmaydi, boshqa davlatlarning hududlarida harbiy harakatlarda ishtirok etmaydi. Faqatgina tinchlik yo‘lida harbiy hamkorlikni amalga oshirishi Mudofaa doktrinasida aks ettirilgan.

Konstitutsiyaviy qonunlar faqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[29] ning 78-moddasida va boshqa moddalarda sanab o‘tilgan O‘zbekiston yurisdiksiyasining predmetlari bo‘yicha qabul qilinadi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart. Xususan, mudofaa va xavfsizlik sohasida ularga quyidagilar kiradi:

78-moddaning 3-qismi – O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish tartibini belgilaydi;

78-moddaning 19-qismi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash belgilangan;

93-moddaning 19-qismi - favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

95-modda –O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emasligiga tegishli.

Darhaqiqat, bugungi kunda qo‘shinlar jangovar shayligi doimiy, kuchaytirilgan, harbiy xavf va to‘liq kabi turlarga bo‘linadi. Xorijiy mamlakatlarda harbiy xavf va to‘liq alohida normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasida harbiy xavf bilan bog‘liq munosabatlar vujudga kelganda 2002 yil 30 yanvardagi “Harbiy holat to‘g‘risida”gi[32] 1-FKQ-sonli federal konstitutsiyaviy qonun bilan, to‘liq jangovar shaylikda esa 2001 yil 30 maydagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi[33] 3-FKQ-sonli federal konstitutsiyaviy qonun bilan tartibga solinadi. Shu bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq munosabatlar Rossiya Federatsiyasining “Harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi[34] federal qonunida mustahkamlangan.O‘zbekiston tajribasida esa, to‘liq jangovar shaylik bilan bog‘liq munosabatlar “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun bilan, harbiy xavf holati esa muayyan darajada “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun va asosan qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga harbiy xizmatchilarning maqomi alohida qonun hujjati bilan tartibga solinmagan.

Fikrimizcha, xorij tajribasidan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasining “Harbiy holat to‘g‘risida”gi hamda “Harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi qonunlarning loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Natijada, harbiy holat va harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq munosabatlar qonun osti hujjatlari bilan emas, qonun normalari bilan huquqiy tartibga solinadi hamda bu xalqaro huquq normalariga ham to‘liq mos tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Имамов А.Э. Механизм реализации закона в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: Академия МВД, 2004. – С.9.

2. Нажимов М.К. Глобализация жараёнлари ва давлатнинг экологик функцияси // Давлат қурилиши ва бошқарувининг долзарб муаммолари: илмий мақолалар тўплами / Масъул муҳаррир: проф. Ҳ.Т.Одилқориев. – 2015. – №1. – Тошкент: ТДЮУ, Ҳуқуқий тадқиқотлар маркази, 2015. – Б.145.

3. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиз (Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг қўшма мажлисидаги маъруза) \\ Асосий мақсадимиз – ватанимиз тараққиёти ва ҳалқимиз фаравонлигини янада юксалтириш. –Т., 2010., 21 б.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон фармони // Lex.uz.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4–жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 85.

6. Alexander Backlund (2000). The definition of system. In: Kybernetes Vol. 29 nr. 4, pp. 444-451.

7. Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. Масъул муҳаррир ва 7муаллифлар жамоасининг раҳбари Б.Мустафоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 584 б.

8. Саидов А.Х., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари: Дарслик. – Т.: 2002. – Б.36.

9. Раянов Ф.М. Проблемы теории государства и права: Учебный курс. – М., 2003. – С. 282 - 283.; Никишин В.В. Экологического законодательства субъектов Российской

Федерации // Журнал российского права. – 2004. – №10.

10. Одилқориев Х.Т., Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик тизими: Монография, - Т., - 2008. – Б.5.

11. Лившиц Р.З. Теория права. –М., 1994. –С.111.

12.Марченко М.Н. Общая теория государства и права. Академический курс в 2-х томах. Под. ред. проф. М.Н. Марченко. Том 2. Теория права. –М., 1998, С.236-237.

13. Российкая юридическая энциклопедия / глав. редактор А.Я. Сухарев. –М.: Изд. Дом ИНФРА. –М., 1999, С.339.

14. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.12. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти, 2006. 205-бет.

15. "Мустақиллик декларацияси" 20.06.1990 // https://lex.uz/docs/185391

16. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллиги асослари тўғрисида"ги 336-XII-сон қонуни // https://lex.uz/docs/127899.

17. Ўзбекистон Республикасининг "Мудофаа тўғрисида"ги 641-XII-сон 1992 йил 3 июлдаги қонуни (янги таҳрирда 11.05.2001 й.) // https://lex.uz/docs/108083.

18.Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 08.12.1992 й. // https://lex.uz/docs/20596

19. Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган "Судлар тўғрисида"ги Қонуни // https://lex.uz/docs/5534923

20. Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрда қабул қилинган «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги 436-II-сонли Қонун // https://lex.uz/ru/docs/78717.

21. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 25 апрелда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари резервидаги хизмат тўғрисида»ги 478-II-сонли Қонуни // https://lex.uz

22. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги "Ички ишлар органлари тўғрисида"ги ЎРҚ-407-сон Қонуни // lex.uz/docs/3027843.

23. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январдаги "Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисида"ги 458-сон қонуни // https://lex.uz/docs/3495885.

24. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 5 апрелда қабул қилинган "Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати тўғрисида"ги ЎРҚ-471-сон Қонун // https://lex.uz/docs/3610935.

25. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида" ЎРҚ-647-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/5128310.

26. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 6 июлдаги "Ўзбекистон Республикаси Президенти Давлат хавфсизлик хизмати тўғрисида"ги ЎРҚ-700-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/5491505.

27. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон Фармони билан тасдиқланган "Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепцияси" // https://lex.uz/docs/3858817.

28. Военное право: Учебник. – М.: «За права военнослужащих», 2004. – Вып. 45. — 28 с. ISBN 5-93297-046-4.

29. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. // lex.uz. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

30. Ўзбекистон Республикаси «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги 436-II-сонли Қонуни. 11.05.2022. // Lex.uz. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

31. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси

фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги ПҚ-4447-сон қарор. 12.09.2019. // Lex.uz. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

32. Россия Федерациясининг 2001 йил 30 майдаги “Ҳарбий ҳолат тўғрисида”ги 1-ФКҚ-сон федерал конституциявий қонуни // http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_35227

33. Россия Федерациясининг 2002 йил 30 январдаги “Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги 3-ФКҚ-сон федерал конституциявий қонуни // pravo.gov.ru. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

34. Россия Федерациясининг 1998 йил 27 майдаги “Ҳарбий хизматчиларнинг мақоми тўғрисида”ги 76-ФҚ-сонли федерал қонун // pravo.gov.ru. (Мурожаат санаси: 10.08.2022).

Maxsadov M.I., Djumayev T.T. Mustaqillik yillarida harbiy sohadagi qonun hujjatlarini shakllanishi va takomillashuvi

Mazkur maqolada harbiy huquqning davlat huquqini alohida sohasi ekanligi asoslab berilgan, harbiy qonunchilikning tushunchasi, tasnifi va o‘ziga xos xususiyatlarini mazmun-mohiyati ochib berilgan, milliy va xorijiy davlatlar harbiy qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan hamda O‘zbekiston harbiy qonunchiligini tizimlashtirish yuzasidan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy qonun, kodeks, qonun, qonunchilik, tizimlashtirish, harbiy qonunchilik va boshqalar.

Махсадов М.И., Джумаев Т.Т. Формирование и совершенствование правовых документов в военной сфере в годы независимости

В данной статье дано понятие военного права и обоснование военного права как отдельной отрасли государственного права, приведена его классификация, перечислены особенности военного права, , сделан сравнительно-правовой анализ военного права отечественных и зарубежных стран, на основании выводов выжвинуты предложения и рекомендации по систематизации военного права Узбекистана.

Ключевые слова: Конституция, Конституционный закон, кодекс, закон, законодательство, систематизация, военное законодательство и др.

Maxsadov M.I., Djumaev T.T. Formation and improvement of legal documents in the military sphere in the years of independence

This article substantiates that military law is a separate branch of state law, reveals the concept, classification and features of military law, makes a comparative legal analysis of the military law of domestic and foreign countries, draws conclusions, makes suggestions and recommendations for systematizing the military law of Uzbekistan.

Key words: Constitution, constitutional law, code, law, legislation, systematization, military legislation, etc.

Mamarasulov Davronbek Xasanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
Saminjonov Mashrabjon Abdugapparovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Shtab boshlig‘i

JANGOVAR TAYYORGARLIKNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TA’LIM METODLARINI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI HARBIY QISMLARI MISOLIDA)

Jahon tarixida yuz bergan urushlar va hozirda yuz berayotgan harbiy harakatlar shuni ko‘rsatmoqda-ki, tinchlik paytida shaxsiy tarkibning professional jangovar tayyorgarligini tashkil etish ham, urush yoki favqulodda holatlarda jangovar vazifani bajara oladigan shaxsiy tarkibni shakllantirish va yetishmayotgan shaxsiy tarkib o‘rnini to‘ldirish ham jangovar tayyorgarlik sur’atini (intensivligini) oshirishni taqozo qiladi.

Yarim yildan ortiq vaqtdan buyon davom etayotgan Rossiya-Ukraina mojarosi ham, Qozog‘istonda yuz bergan ommaviy tartibsizliklar ham kuch tuzilmalari shaxsiy tarkibini yangicha tahdidlar xarakteridan kelib chiquvchi yangi vazifalarga juda qisqa muddatlarda tayyorlash yoki qayta tayyorlash zarurati yuzaga kelishini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy janglarda ham yetishmayotgan inson resursini to‘ldirish va qisqa fursatlarda jangovar vazifalarga tayyorlash ehtiyoji yuzaga kelishi mumkinligi ayon bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda jangovar tayyorgarlik uslubiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yuqoridagi kabi holatlarga tayyorgarlik nuqtai nazaridan ham, qolaversa, kuch tuzilmalarimizning asosiy vazifalaridan kelib chiquvchi professional vazifalarni bajarish nuqtai nazaridan ham jangovar tayyorgarlikni tashkil etish tizimini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar kam emasligi ko‘zga tashlanadi.

Jumladan, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari va funksiyalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak [1], Milliy gvardiya bo‘linmalarida hozirgi kunda amalda bo‘lgan, an’anaviy ta’lim metodikasiga tayanuvchi jangovar tayyorgarlikni isloh qilish lozim. Fikrimizcha, komandirlar va shaxsiy tarkibni kreativ fikrlash va kreativ qaror qabul qilishga o‘rgatish lozim. Ayniqsa, nostandart vaziyatlar, ya’ni murakkab va ekstremal vaziyatlarda nostandart, ya’ni kreativ fikrlash zarur bo‘ladi. Sobiq Ittifoq hududidagi, xususan Markaziy Osiyo mamlakatlarida so‘nggi yillarda yuz bergan ommaviy tartibsizliklarda ayniqsa bu ehtiyoj sezildi.

Fikrimizcha, jangovar tayyorgarlikning turli bosqichlari qamrab oluvchi fanlar va mavzularni takrorlanuvchan ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar tarzidagi tayyorgarlik metodlaridan ta’lim metodlarning zamonaviy ko‘rinishlariga o‘tish fursati allaqachon yetib kelgan. Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, ta’limning an’anaviy metodlari va zamonaviy interaktiv metodlari o‘rtasidagi tafovutni belgilab olish lozim.

An’anaviy ta’limda ta’lim oluvchilar passiv, ta’lim beruvchi faol bo‘lgani holda, zamonaviy metodlarda ta’lim oluvchilar o‘zaro faol bo‘lishlari, an’anaviy ta’lim metodlari, asosan, tinglash, o‘qish, mexanik eslab qolish, matnni so‘zma-so‘z takrorlash, faktlarni eslab qolish, matnni yod olish kabi zo‘riqtiruvchi, zerikarli metodlar hisoblangani holda, zamonaviy interaktiv metodlarda asosiy e’tibor amaliyotdagi turli holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi va bu zamonaviy metodlar asosidagi mashg‘ulotlar qiziqarli bo‘lishiga xizmat qilishi sir emas.

Eskicha ta’lim metodlaridan foydalanilishini imkon qadar qadar cheklab, quruq yod olingan bilimdan ko‘ra ko‘proq amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalarga

e’tibor qaratish zamon talabidir.

Jangovar tayyorgarlik jarayoniga zamonaviy metodlarni olib kirish zarurati haqida bir qator mutaxassislar o‘z fikrlarini berib o‘tganlar.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo‘shinlari Perm harbiy instituti professor-o‘qituvchilari – pedagogika fanlari nomzodi O.A.Emelyanov hamda o‘qituvchilar A.V.Morozov, V.I.Prudnikovlar hammuallifligidagi ilmiy maqolada taktik-situatsion o‘q otish merganlik tayyorgarligidagi zamonaviy samarador bosqich sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Mualliflar ushbu maqolada o‘q otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarida eskirgan usullardan voz kechib, taktik-situatsion mashqlarni joriy qilishning real, jangovar shart-sharoitga yaqin tarzda tashkil etilishini ta’minlashini ta’kidlaydilar [2].

Fikrimizcha, yuqoridagi mualliflarning o‘q otish tayyorgarligini taktik-situatsion mashqlar orqali real, jangovar shart-sharoitlarga maksimal darajada yaqinlashtirish fikri jangovar tayyorgarlikning barcha mashg‘ulotlari, barcha bosqichlari uchun birday muhim hisoblanadi. Albatta, bu tajribani joriy qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi misolida oladigan bo‘lsak, birinchi navbatda, harbiy qismlarda jangovar va maxsus tayyorgarlik dasturlariga tegishli mavzular kiritish, ushbu mavzular uchun taktik-situatsion mashqlarning O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xizmat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda mahalliy sharoitlarimizga hamda mos variantlarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Yana bir rossiyalik tadqiqotchi V.A.Lutsenkoning ilmiy maqolasida harbiy xizmatchilarning harbiy-amaliy tayyorgarligida umumiy va maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha pedagogik treninglarni joriy qilish haqida so‘z boradi. Ushbu maqolada muallif, asosan, muddatli harbiy xizmatchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi, bunda kuch, tezlik va umumiy chidamlilikning roli, maxsus jismoniy tayyorgarlik o‘q otish tayyorgarligining asosini tashkil qilishi kabi fikrlarni olg‘a surib, pedagogik treninglar o‘tkazish bo‘yicha bir martalik tajriba-sinov natijalarini keltirib o‘tgan. Ushbu natijalarga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari quyidagicha oshishiga erishilgan: kuch chidamliligi – 5,6%, tezlik-kuch chidamliligi - 2,1%, umumiy chidamlilik – 2,56%. Yillik siklda maxsus harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik dinamikasi tahliliga ko‘ra, kuch tayyorgarligi – 13,8%, o‘q otish – 12,0%, to‘siqlarni yengib o‘tish – 15% ga yaxshilangan [3].

V.A.Lutsenko tomonidan keltirilgan tajriba-sinov ko‘rsatkichlari Rossiya Federatsiyasi sharoitida erishilganligini inobatga olsak, bu kabi tajriba-sinovlarni ham mahalliy sharoitlarda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismlari jangovar tayyorgarligi jarayonida o‘tkazgan holda, ijobiy natijaga erishilgan taqdirda, ommalashtirish maqsadga muvofiq.

Rossiyalik tadqiqotchilar V.Yu.Baturin, S.V.Nepomnyashiy, A.V.Yastrebovlarning ilmiy maqolasida sobiq Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi Ichki qo‘shinlari Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo‘shinlari federal xizmati (Rosgvardiya) etib qayta tashkil etilganidan so‘ng, Rosgvardiyaga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, uning maxsus-taktik tayyorgarligi, shuningdek, tarkibidan Ichki qo‘shinlar chiqarilgan RF Ichki ishlar vazirligi maxsus-taktik tayyorgarligini tashkil etishda yangicha yondashuv bu tuzilmalarning yangi xususiyatlari va vazifalaridan kelib chiqishi lozimligi haqida so‘z boradi [4].

Rosgvardiyaning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy vazifalariga o‘xshash ekanligi, jumladan, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etish va terrorizmga qarshi operatsiyalarda huquqiy tartibotni ta’minlash, hududiy mudofaada ishtirok etish, muhim davlat obyektlarini qo‘riqlash, davlat chegaralarini qo‘riqlashda chegara qo‘shinlariga ko‘maklashish kabi asosiy vazifalarni inobatga olgan holda, Rosgvardiyada ham,

O‘zbekiston Milliy gvardiyasi kabi, tashkil topganiga ko‘p bo‘lmagani holda, yuqorida keltirilgan asosiy vazifalardan kelib chiqib, tezkor xizmat va jangovar faoliyatidagi o‘zgarishlarni jangovar tayyorgarlik, xususan maxsus-taktik tayyorgarlik jarayonida inobatga olishdek kechiktirib bo‘lmas islohotlar amalga oshirilmoqda.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan Rossiya Federatsiyasi tajribasidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismlari uchun jangovar tayyorgarlik bo‘yicha dasturlardagi mavzularni, birinchi navbatda, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalaridan kelib chiqib amalga oshiriluvchi tezkor-xizmat va jangovar faoliyatni inobatga olgan holda to‘liq qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Shaxsiy tarkibni professional vazifa va funksiyalarga tayyorlash bo‘yicha aynan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining ham o‘ziga xos ilg‘or tajribasi bor deb aytish mumkin, lekin bu ilg‘or tajriba harbiy sohadan, jangovar tayyorgarlikdan ko‘ra, qo‘riqlash sohasida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Fikrimizcha, Milliy gvardiya Qo‘riqlash bosh boshqarmasi tizimida xizmatga yangi qabul qilingan xodimlarning mintaqaviy o‘quv markazlarida boshlang‘ich tayyorgarligi, o‘rta va uzoq muddat xizmat o‘tayotgan xodimlarning qayta tayyorgarlik va malaka oshirishdan o‘tishi bo‘yicha mavjud tizim to‘g‘ri tashkil etilgan. Bu jarayonda ham, albatta, o‘ziga xos kamchiliklar yetarlicha mavjudligini inkor qilib bo‘lmaydi va bu kamchiliklar ham asta-sekin o‘z yechimini topmoqda, ya’ni o‘quv-moddiy baza hamda o‘quv dasturlarini yangilash va takomillashtirish, o‘quv markazlarini zamonaviy adabiyotlar bilan ta’minlash kabi ishlar hozirda amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, kadrlarning turli tayyorgarlik bosqichlari yaxlit shaklda ijobiy va ilg‘or tajriba deb hisoblanishi mumkin va bu tajribani Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jangovar tayyorgarligi tizimiga ham moslashtirish maqsadga muvofiq.

Qolaversa, jangovar tayyorgarlikni tashkil etishda takrorlanuvchan, bosqichli metodikani ham isloh qilgan holda, modulli o‘qitish tizimi elementlarini, tajriba-sinovdan o‘tkazgan holda, joriy qilish jangovar tayyorgarlikning intensivligini oshirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz. Bu borada rossiyalik olimlar – zaxiradagi polkovnik, harbiy fanlar nomzodi N.N.Leventov va texnika fanlari nomzodi I.K.Rusanova o‘z ilmiy maqolasi asosli fikrlarni keltirganlar. Jumladan, mualliflar “qo‘shinlarni urushda kerakli narsalarga o‘rgatish”, “o‘qitishning tizimliligi, tadrijiyligi va ilmiyligi”, “ta’lim va harbiy tarbiyaning yaxlitligi”, “har bir komandir o‘z bo‘ysunuvchilarini o‘qitadi” kabi tamoyillar har doim ham zamonaviy holatga va jangovar tayyorgarlik natijasiga mos kelmayotganligini ta’kidlab, jangovar tayyorgarlik tizimining maqsadi harbiy xizmatchilar tomonidan qo‘shinlarning mo‘ljallanishi bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishiga xizmat qiluvchi bilimlar, mahorat, ko‘nikmalar va sifatlarning egallanishi va qo‘ldan chiqarilmasligidir, deb hisoblaydilar [5].

Harbiy fanlar nomzodi N.N.Leventov va texnika fanlari nomzodi I.K.Rusanova Rossiya Federatsiyasi quruqlik qo‘shinlarida shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilardan tarkib topgan bo‘linmalar uchun joriy qilingan “modulli” dastur va muddatli hamda aralash tarkibga ega bo‘linmalar uchun amalda bo‘lgan muntazam “bosqichli” dastur o‘rtasidagi tafovut qo‘shinlar jangovar tayyorgarligi natijalariga salbiy ta’sir qilganligini bildirib, bu borada rejalashtirishning eskirgan shakllaridan voz kechishni taklif qiladilar. Shu bilan birga, mualliflar yagona kompleks taktik vazifa (единая комплексная тактическая задача – ЕКТЗ) jangovar tayyorgarlik asosini tashkil qilishi, shuningdek “modulli” dastur universal xarakterga ega bo‘lganligi sababli, bu dasturni butun quruqlik qo‘shinlariga yaxlit tarzda joriy qilish maqsadga muvofiq degan xulosaga keladilar.

Rivojlangan mamlakatlarda barcha turdagi ta’lim muassasalari, jumladan, harbiy ta’lim, qo‘shinlar jangovar tayyorgarligi tizimida allaqachon “modulli” tizimga o‘tib

bo‘linganligi, qolaversa, N.N.Leventov va I.K.Rusanova tomonidan amalga oshirilgan Rossiya Federatsiyasi tajribasi tahliliga tayangan holda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi jangovar tayyorgarligini tashkil etish tizimiga ham modulli dasturlarni tatbiq qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi, jangovar-xizmat faoliyatiga tayyorlanishidagi kamchiliklar bu borada yaxlit adabiyotlar yetishmovchiligi bilan ham bog‘liq. Aynan shu muammo Rossiya Federatsiyasida ham mavjudligi Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo‘shinlari Sankt-Peterburg instituti hamda Rosgvardiya strategik tadqiqotlar ilmiy markazi xodimlari A.P.Sharuxin, S.Yu.Shimko tomonidan nashr etilgan maqolada ham ko‘tarilgan. Ushbu ilmiy maqolada mualliflar Rosgvardiyaning yangicha tuzilma ekanligi, zimmasidagi asosiy vazifalarning o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda, jangovar-xizmat faoliyatiga tayyorlash tizimini pedagogik jihatdan tartibga solish maqsadida, yaxlit adabiyot yaratish zarurligini ta’kidlab o‘tganlar. Ularning fikricha, jangovar-xizmat faoliyati spetsifikasi “Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo‘shinlari jangovar-xizmat pedagogikasi” nomli trendni yuzaga keltirmoqda [6].

Ushbu fikrga qo‘shilgan holda, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan, ham harbiy, ham huquqni muhofaza qiluvchi organ xususiyatlariga ega tuzilmalar uchun, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi uchun ham “Jangovar-xizmat pedagogikasi” fanining yaratilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan, fuqarolarning dunyoqarashi yildan-yilga oshib borayotgan bir davrda, Qurolli Kuchlar, Milliy gvardiya oldidagi vazifalarning samarali amalga oshirilishini zamonaviy tahdidlar, zamonaviy janglar, xususan, axborot xurujlari bilan qorishgan gibrid janglarsiz tasavvur etish mumkin emas. Bunday tahdidlar, bunday janglarga shay turish Milliy gvardiya shaxsiy tarkibidan ham jismonan, ham aqlan, ham ma’nan, ham operativ-taktik va strategik ko‘nikmalarni qisqa fursatlarda shakllantirish va tinimsiz takomillashtirib borish, ya’ni “charxlab turish”ni taqozo qiladi.

Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, AQSh Milliy gvardiyasi [7], [8], Italiya Karabinerlar korpusi [9], Fransiya Jandarmeriyasi [10] kabi tuzilmalar jangovar-xizmat tayyorgarligi, birinchi navbatda, amaliyotga yo‘naltirilganligi, bunday tayyorgarliklar, asosan, maxsus o‘quv markazlarida amalga oshirilishiga guvoh bo‘lamiz.

Mana shu ko‘nikmalarni qisqa fursatlarda shakllantirish va tinimsiz takomillashtirib borish tizimi eskirgan metodikalardan xoli bo‘lishi va yangicha metodikalar yordamida samaradorligi oshishiga erishish maqsadida, yuqorida keltirilgan ilg‘or tajribalarni ham inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismlari jangovar tayyorgarligini tashkil etish tizimida quyidagilar chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

birinchidan, harbiy qismlardagi jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida tinglash, o‘qish, mexanik eslab qolish, matnni so‘zma-so‘z takrorlash, faktlarni eslab qolish, matnni yod olish kabi eskicha ta’lim metodlaridan foydalanilishini imkon qadar qadar cheklab, quruq yod olingan bilimdan ko‘ra ko‘proq amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalarga e’tibor qaratish;

ikkinchidan, maxsus jismoniy tayyorgarlik, o‘q otish tayyorgarligi kabi jangovar tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini tashkil etishda pedagogik treninglarni joriy qilish;

uchinchidan, modulli o‘qitish, keys-stadi, rolli o‘yinlar, situativ vazifalar, aqliy hujum kabi zamonaviy ta’lim metodlarini harbiy qismlardagi jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlariga joriy qilish va ommalashtirish;

to‘rtinchidan, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida komandirlar va shaxsiy tarkibni, mavzulardan kelib chiqib, kreativ

fikrlash va kreativ qaror qabul qilishga o‘rgatish (ayniqsa, murakkab, ekstremal vaziyatlarda zarur bo‘ladi: Belarus, Qozog‘iston, Qoraqalpog‘istondagi ommaviy tartibsizliklar tajribasidan buning zarurati sezildi);

beshinchidan, mashqlarning polifunksionallik tamoyiliga rioya qilish;

oltinchidan, tajribali serjantlarni jalb qilgan holda, “tyutoring” tizimini jangovar tayyorgarlikni tashkil etish tizimiga joriy qilish;

yettinchidan, jangovar tayyorgarlik fan va mavzularidan kelib chiqib, raqamli ta’lim platformalarini yaratish va yakka tartibdagi jangovar tayyorgarlik, guruh tarkibidagi jangovar tayyorgarlik va mustaqil tayyorgarlik jarayonlariga tatbiq qilish;

sakkizinchidan, yetakchi mutaxassislar, komandirlar va ta’lim beruvchilarning potensialini ommalashtirish maqsadida, jangovar tayyorgarlikning nazariy mavzularini o‘rgatishda masofaviy ta’lim elementlaridan foydalanish;

to‘qqizinchidan, amaliy mashg‘ulotlar uchun interaktiv trenajyorlar joriy qilish;

o‘ninchidan, turli maketlar yordamida harbiy harakatlarni operativ-taktik va strategik modellashtirish orqali mashq qilishni ommalashtirish;

o‘n birinchidan, harbiy qismlarda jangovar tayyorgarlik dasturlariga modulli o‘qitish tizimi elementlarini joriy qilish.

Fikrimizcha, Milliy gvardiya harbiy qismlari jangovar tayyorgarligini oshirishda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish, jumladan Milliy gvardiya mintaqaviy o‘quv markazlarida Milliy gvardiya harbiy qismlariga serjantlar tarkibi lavozimlariga xizmatga yangi qabul qilinayotgan nomzodlarning boshlang‘ich tayyorgarligini amalga oshirish tizimini tatbiq qilish va bu tizimda boshlang‘ich jangovar tayyorgarlik, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha dastlabki eng zaruriy bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha dasturlarni joriy qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрдаги ЎРҚ-647-сонли “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги қонунининг 3-моддаси // lex.uz

2. Емельянов О.А., Морозов А.В., Прудников В.И. Тактико-ситуационная стрельба как новый этап эффективной подготовки стрелка. // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2019. – № 1(167). – С. 106–108.

3. Луценко В.А. Педагогические тренинги общей и специальной направленности в военно-прикладной подготовке военнослужащих // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2021. – № 11 (201). – С. 237–243.

4. Батурин В.Ю., Непомнящий С.В., Ястребов А.В. Некоторые вопросы определения содержания тактико-специальной подготовки сотрудников органов внутренних дел // Вестник Волгоградской академии МВД России. – 2016. – № 4 (39) – С. 118–120.

5. Левентов Н.Н., Русанова И.К. Особенности планирования боевой подготовки при модульном построении слаживания подразделений // Военная мысль. – 2022. – № 4. – С. 117–121.

6. Шарухин А.П., Шимко С.Ю. Потребности служебно-боевой деятельности воинских частей Росгвардии в научно-методическом обеспечении // Вестник Уфимского юридического института МВД России. – 2022. – №2 (96). – С. 164–171.

7. https://reservenationalguard.com/unit-training/

8. https://www.nationalguard.com/education

9. Гомельский В. Карабинерские войска Италии // Зарубежное военное обозрение. 2015, №6, С.41-43.

10. https://petrovka-38.com/arkhiv/item/vo-frantsuzskoj-storone

Mamarasulov D.X., Saminjonov M.A. Jangovar tayyorgarlikni tashkil etishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash istiqbollari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismlari misolida)

Ushbu maqolada harbiy qismlarda jangovar tayyorgarlikni tashkil etish tizimining hozirgi kundagi holati, jangovar tayyorgarlikda foydalaniladigan ta’lim metodlari, jangovar tayyorgarlik jarayoniga zamonaviy ta’lim metodlarini joriy qilish istiqbollari, jumladan jangovar tayyorgarlik sur’atini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jangovar tayyorgarlik, jangovar tayyorgarlik metodikasi, Milliy gvardiya, harbiy qism, harbiy xizmatchi, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, patrullik xizmati, ta’lim, zamonaviy ta’lim metodlari.

Мамарасулов Д.Х., Саминжонов М.А. Перспективы применения современных методов обучения в организации боевой подготовки (на примере воинских частей Национальной гвардии Республики Узбекистан)

В статье рассмотрены вопросы организации в воинских частях современной системы боевой подготовки, проанализированы методы обучения, применяемые в этой сфере, изучены перспективы внедрения в боевую подготовку современных методов обучения, в том числе как одного из элементов - возможность повышения интенсивности боевой подготовки.

Ключевые слова: боевая подготовка, методика боевой подготовки, Национальная гвардия, воинская часть, военнослужащий, обеспечение общественной безопасности, охрана общественного порядка, патрулирование, обучение, современные методы обучения.

Mamarasulov D.X., Saminjonov M.A. Prospects for the use of modern teaching methods in the organization of combat training (on the example of military units of National guard of Republic of Uzbekistan)

This article discusses such issues as the current state of the system of organization of combat training in military units, the used teaching methods in combat training, the prospects for the introduction of modern teaching methods in combat training, including the possibility of increasing the intensity of combat training.

Key words: combat training, methods of combat training, National guard, military unit, serviceman, ensuring public safety, public order.

Xursandov Alisher Suyunovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Tillarni o‘rganish” kafedrasi boshlig‘i,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Muradullayev Abbosbek Abduraxmanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya Markaziy devoni
Kadrlar boshqarmasi Butlash bo‘limi boshlig‘i

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING AHAMIYATI

Yangi O‘zbekiston siyosatining tub o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan obyektiv va subyektiv sabablar va omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarida yuz bergan tub o‘zgarishlar siyosiy sohada ham sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi: siyosiy tizim, ijtimoiy-siyosiy institutlar va tashkilotlar faoliyati sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda. Albatta, buning zamirida dastlab 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va bugungi kundagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi mujassam. O‘zgarishlar ommaviy ongning me’yoriy-huquqiy tuzilmalariga, fuqarolarining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xulq-modellariga ta’sir ko‘rsatdi. Bunday sharoitlarda ijtimoiylashuv jarayonining muhim qismi bo‘lgan yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi bir qator muhim ijtimoiy muammolar sifatida paydo bo‘ldi. Bu siyosat subyekti sifatida yoshlarning shakllanishida, tegishli ko‘nikmalar va ko‘nikmalarga ega bo‘lishida va shu bilan bog‘liq huquqlar va majburiyatlarning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy ijtimoiylashuvdir. Bir tomondan, yoshlar muayyan jamiyatga xos bo‘lgan muayyan odatlarni, psixologik moslashuv mexanizmlarini, ijtimoiy normalarni va qadriyatlarni o‘rganadi. Boshqa tomondan, yosh avlodni yuqorida aytib o‘tilgan barcha narsalar bilan ta’minlaydigan jamiyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuviga, bevosita yoki bilvosita ijtimoiy-siyosiy muhitda va siyosiy-davlat munosabatlarida belgilanadigan siyosiy institutlar faoliyati va siyosiy jarayonlarga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Bugungi kunga kelib demokratik xarakterga ega bo‘lgan siyosiy partiyalarning asosiy funksiyalari alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy tabaqa va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko‘tarish va tayanadigan ijtimoiy tabaqalar vakolatlarini siyosiy tizimda ifoda etish, hokimiyatni saylovlar vositasida shakllantirish jarayonlarida faol ishtirok, davlat qarorlarini legitimlashtirish, ularning jamiyat tomonidan e’tirof etilishini ta’minlash bilan birga, fuqarolarning siyosiy jihatdan ijtimoiylashuviga ko‘maklashishga erishishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardayoq davlat tomonidan mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni asosiy strategik pirovard maqsad, deb e’lon qilindi. “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili bu sohada olib boriladigan islohotlarning asosiy g‘oyasi sifatida qabul qilindi. Natijada mustaqillik davrida mamlakatda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, huquqiy va siyosiy asoslari shakllandi, uning institutlari jadallik bilan rivojlana boshladi. Bu jarayonda xalqimizning tarixiy rivojlanish an’analari, demokratik prinsiplar va umuminsoniy qadriyatlar asosida islohotlarni chuqurlashib borishi, milliy manfaatlarni o‘zida ifoda etishga asoslangan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni qurish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tilishi natijasida O‘zbekistonda jamiyatning barcha sohalari rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lgan taraqqiyot bosqichiga kirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Barchamizga ma’lumki, jahondagi erkin rivojlanayotgan, suveren, huquqiy demokratik davlatlar tomonidan

e’tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalariga amal qilish, shuningdek, xalqimizning milliy manfaatlari, mentaliteti va an’analarini hisobga olgan holda, O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo‘yicha tizimli va izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ana shu ko‘p qirrali siyosatning poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda bu borada 70 dan ortiq xalqaro hujjat, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 10 ta asosiy konvensiyasi ratifikatsiya qilinganini alohida ta’kidlash lozim. Fuqarolik jamiyati barpo etish, yurtdoshlarimizning erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish kelgusida ham O‘zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi”[1]. Darhaqiqat, bugungi kunda O‘zbekistonning jahonda tutgan o‘rni va salohiyati oshib bormoqda. Buni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning so‘nggi yillarda BMT Bosh Assambleyasining uchta sessiyasida so‘zlagan nutqlari va har sohadagi, ayniqsa, yoshlar masalalarida bildirgan takliflarini bir ovozdan qo‘llab-quvvatlanishi va turli rezolyutsiya va konvensiyalarni qabul qilinganligidan ham anglash mumkin.

Shu bilan birga, taniqli siyosatshunos olim M.Qirg‘izboyevning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ilg‘ash, ularning partiyaviy doirasiga jamlab, siyosiy jarayonlarga safarbar etish, shuningdek, fuqarolarni bu jarayonda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, demokratik saylovlarda saylangan o‘z vakillari, vositasida o‘z muqobil dasturlarini amalga oshirish, siyosiy maqsadlarini “davlat idorasi” bilan uyg‘unlashtirish, xalq bilan davlat organlari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarni doimiy ravishda ta’minlab turish, davlat organlarining qarorlar qabul qilish, ularga tuzatishlar, qo‘shimchalar kiritish jarayonining tabiiy ravishda kechishini ta’minlash va boshqa vazifalarni o‘z ichiga oladi”[2].

Bizning nazarimizda, yoshlarga berilgan e’tiborni faqatgina siyosiy partiyalar dasturlarida emas, balki o‘z amaliy faoliyatlarida ham aks ettirsalar islohotlar ijobiy samara beradi. Buning uchun esa, faqatgina siyosiy partiyalar faoliyatini tanqid qilish bilan cheklamasdan, uning faoliyatiga amaliy jihatdan ko‘maklashish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish lozim. Zero, yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirmasdan turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo‘lmasligi barchamizga ma’lum, keyingi paytlarda mamlakatimizda yoshlarning siyosiy faolligi oshib bormoqda. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, “Biz g‘oyat muhim yo‘nalishdagi bu ishlarimizni davom ettirgan holda, Parlamentlararo ittifoq ko‘magida “Biz parlamentda yoshlarni qo‘llab-quvvatlaymiz!” degan ezgu tashabbusni amalga oshiramiz. Siyosiy yetuk va faol yosh yigit-qizlarimizni milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlar faoliyatiga yanada kengroq jalb etamiz. Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda”[3].

Bu vazifani esa, ongli, faol va albatta bilimli yoshlargina barcha qiyinchiliklarni yengib, Yangi O‘zbekistonning gullab-yashnashiga va xalqaro hamjamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Siyosiy institutlarning asosiy vazifasi sifatida individlarni siyosiy ijtimoiylashuvini ta’minlash, siyosiy tuzumning barqarorligini mustahkamlash bilan bir qatorda, o‘ziga xos ravishda yangi elitalarni, xususan, yosh avlod tarbiyasida milliy-siyosiy identifikatsiya talablarini qaror toptirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zero, bugun “tamaddunlar to‘qnashuvi” (S.Xantington) muqarrar ko‘zga tashlanayotgan bir davrda, globallashuvning salbiy sahna ko‘rinishining asosiy “aktyorlari” sifatida yoshlarni tanlab olinayotganligida ham o‘ziga xos maqsadlar

yotadi. Birinchidan, keksa aholi passiv va introspeksiya- ya’ni o‘z-o‘zini kuzatishga, o‘zi haqida qayg‘urishga, yoshlar esa serg‘ayrat va milliy-siyosiy qat’iyatlilikni qo‘llab-quvvatlashga moyil bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida, ijobiy maqsadlar bilan bir qatorda, buzg‘unchi, yot g‘oyalar “natijaviyligi” uchun katta kuchni taqdim etadi. Masalan, Gitler siyosiy tuzumining 12 yil davomidagi (1933-1945) nufuzi “Gitleryugend” yoshlar tashkilotining, Yaponiyada zamonaviy “manqurtlar” tayyorlash markazi “Aum Senrikyo” yoki Xitoydagi “Stalini” Mao Szedun tuzumi “himoyachilari” sifatida tuzilgan “Xunveybinlar” harakati a’zolari ham aynan yoshlar ekanligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Jamiyatdagi siyosiy institutlarning taraqqiyoti avvalo, jalb etish g‘oyasi va mafkurasi bilan bevosita bog‘liqdir va mafkuraning kuchliligi, ma’lum manfaatlarga ifodalanishi, a’zolarni ortishiga ham olib keladi. Siyosiy institutlarning davlat, parlament, partiya, konservatizm, neokonservatizm, lobbizm va hatto ommaviy axborot vositalari kabi ko‘rinishlari aholi turli qatlamlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda, katta siyosiy boshqaruv mexanizmlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv jarayoni o‘z navbatida salbiy ahamiyat kasb etishi va buni tamaddunlar taraqqiyotiga ta’sirini hisobga olib, bu jarayonda siyosiy institutlarning faoliyati darajasi bizning fikrimizcha, quyidagi asosiy omillar asosida isloh qilinishi maqsadga muvofiq: Siyosiy institutlarning eng asosiysi sifatida davlat namoyon bo‘lar ekan, avvalo, u rahnamoligida aholi turli qatlamlari va guruhlarining jamoaviy va shaxsiy manfaatlarini aniqlash, siyosiy ijtimoiylashuvni asosiy shartidir. Zero, oqilona maqsad sari faol harakatlanayotgan guruh bilan turli mazmundagi xavf-xatarlarni oldini olish oson kechadi.

Ikkinchidan, siyosiy institutlarning sotsiolizatsiya, ya’ni, ijtimoiylashtirish, ishontirish tamoyillari asosida aholi turli qatlamlari siyosiy ongi va madaniyatini oshirishi - har qanday ko‘rinishdagi g‘oyalarga qarshi kuchli bunyodkor g‘oya asosida javob qaytarish xususiyatini shakllantirib berishi ularning o‘ziga xos va asosiy belgisi hisoblanadi. Uchinchidan, siyosiy institutlar jamiyatning asosiy barqarorligi sharti ham hisoblanib, bugungi kunda davlat siyosiy tuzumining asosiy “saqlovchisi” vazifasini bajarishi, o‘z navbatida turli ijodkor, g‘ayratli, shijoatkor qatlami, ya’ni, yoshlarni o‘zida birlashtirishi yuqoridagi omillarni amaliyligi va albatta davomiyligini ta’minlab beradi. Zero, yosh avlod, keyingi avlodga yetkazib berish kuchlari hamdir.

Siyosiy institutlar har qanday jamiyat modernizatsiyalashuv jarayoni uchun asosiy tayanch sifatida namoyon bo‘lishi va bu omilni mustahkamlashda aholi siyosiy madaniyati va ongini oshirish jarayoni bilan chambarchas bog‘lashda asosiy nuqtadir.Taniqli siyosatshunos S.Xantington “tartibotsiz (bu yerda siyosiy tuzum nazarda tutilmoqda) ozodlik bo‘lishi mumkin, ammo ozodlik tartibotsiz bo‘lishi mumkin emas”[4]. Bu yerda ko‘rinib turganidek, siyosiy institutlar avvalo ichki munosabatlarni tartibga solish, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirish yo‘li bilan shu davlatga xavfi mavjud bo‘lgan turli jarayonlarga fikrlarni shakllantirish vazifasini ham bajarib berar ekan. Fikrlar xilma–xilligi, mafkuralar, g‘oyalar turli-tumanligi muhiti aslida jamiyatlar va davlatlar manfaati uchun o‘ta zararli emas. Ammo shu g‘oyalar va mafkuralardan “niqob” sifatida foydalanayotgan ayrim kuchlar “demokratiya posbonlari” yoxud “demokratiya fabrikalari” vakillari sifatida aholi kayfiyatini manipulatsiya qilishda va shu orqali davlatlar siyosiy boshqaruviga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqdalar va hatto bu kuchlar turli “ranglar inqiloblari” (Ukraina, Qirg‘iziston va Gruziya)ni ham yasashga erishdilar.

Jamiyat ijtimoiy institutlari ichida eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgani bu aynan siyosiy institutlar ekani, bugun jamiyatda taraqqiyotga ega mamlakatlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Siyosiy institutlar faqatgina siyosiy manfaatlar va kuchlarni birlashtirib qolmasdan, avvalo, o‘z a’zolarini boshqarish va shuningdek, o‘z obyekti

bo‘lgan davlatning yagona birligi, xavfsizligiga doir barcha masalalarda mas’ul, yetakchi boshqaruv tizimlari birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat davlat munosabatlari integratsiyasi mavjud ekan, demak, globallashuv ham to‘xtovsiz jarayon. Bu munosabatlarning davriy holati esa u yoki bu davlat aholisi manfaatlari asosi, ya’ni, yetakchi siyosiy institutlari belgilab beradi. B.Juvenel “Jamiyatning ichida o‘zaro ishonch munosabatlarini shakllantirilganligi davlat, jamiyat olg‘a intilishi uchun mezon va bu siyosiy institutlar tomonidan shakllantiriladi”[5] degan edi. Shu boisdan siyosiy institutlar faoliyatini takomil-lashtirishga xizmat qilayotgan globallashuv jarayonini O.Toshboyev quyidagicha izohlaydi: “...globallashuv ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanayotganidek, muqarrar jarayon ekan, unga qarshi oyoq tirab turish yoki sun’iy to‘siq va cheklov qo‘yish aks ta’sir ko‘rsatishi mumkin”[6].

Hozirgi paytda sayyoramiz aholisi ko‘payib borayotgan bir paytda (asosan Osiyo va Afrika mamlakatlari hisobidan) muhojirlik muammosi iqtisodiy rivojlangan davlatlarni tashvishlantirmoqda. Muhojirlarning asta–sekin shu mamlakat fuqarolariga aylanishlari tub aholining tashvishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada titul millat vakillari o‘rtasida irqchilik, millatchilik va neofashistik kabi kayfiyat kuchaymoqda. Bu haqida Birinchi Prezident Islom Karimov shunday yozgan edi: “Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi muqarrar”[7].

Shuning bilan bir qatorda keyingi paytlarda davlatlar darajasidagi munosabatlarda tajovuzkorlik va zo‘ravonlik hukmron yo‘nalishga aylanmoqda. Buning natijasida nihoyatda ko‘p sonli odamlar azob chekish bilan birgalikda pessimistik va G‘arb jamiyatlariga nisbatan teskari munosabatlar paydo bo‘lmoqda. Shuning uchun ham E.Toffler, D.Bell, Z.Bjezinskiy va boshqa shu kabi futurolog olimlar tomonidan kelajakda katta urushlar, ma’naviy qarama-qarshiliklar va resurslar uchun kurash, sivilizatsiyalar va madaniyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar kelib chiqish ehtimoli ko‘proq bashorat qilinmoqda. Globallashuv haqida fikr yuritib A.Arbatov quyidagicha yozadi: “XX asr nihoyasi hamda XXI asr boshlari keng rivojlanish yo‘liga kirgan global o‘zgarishlar jarayoni hozirgi zamon jamiyatining barcha tomonlarini: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy munosabat sohalarini qamrab oluvchi hodisaning ya’ni globallashuvni yuzaga keltirmoqda”[8].

Globallashuv sharoitida sodir bo‘layotgan bunday murakkab jarayonlar va turli tajovuzkor mafkuralar, hayosizlik va zo‘ravonlik kayfiyatlarini, egotsentrizm g‘oyalarining kirib kelishi xavfi kuchaygan bir paytda, xalqni, ayniqsa yoshlarni tajovuzkor mafkuralar ta’siridan himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib kelmoqda.

Yangi O‘zbekistonda demokratik siyosiy tizimni yanada takomillashtirish, barqaror va jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohada, umuman zamonaviy jamiyat va ayniqsa, yoshlar siyosiy, huquqiy va ma’naviy madaniyat va fuqarolikning yuksak darajada bo‘lishi, avvalo, ustuvor yondashuv va faoliyat mazmunini o‘zgartirishni talab qiladi. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvining asosiy mavzusi sifatida davlatning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda, yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi sohasidagi davlat boshqaruvini optimallashtirish, eng munosib va samarali usullari, faoliyat usullari va vositalari tizimi asosida, konseptual tushunchalar, ilmiy tahlil va rivojlanish zarur bo‘ladi.

Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi quyidagi jarayonlarda aks etadi:

- Siyosiy ijtimoiylashuv - bu siyosiy tizim talablarini shaxsning ichki tuzilishiga siyosiy madaniyat elementlari sifatida yetkazib berish yo‘li bilan siyosiy qarashlarni, yo‘nalishlarni va qadriyatlarni shakllantirish jarayoni bo‘lib, natijasi (jarayon) - shaxsning

siyosiy tizim bilan ishlash orqali o‘z maqsadlariga erishish qobiliyatini shakllantirishidir;

- hozirgi jamiyatda yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi asosan o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi va mavjud bo‘lib qolmoqda, chunki mavjud siyosiy tizim doirasida siyosiy ijtimoiylashuv institutlari murakkab va qarama-qarshilik evolyutsiyasi orqali rivojlanib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda yoshlar faolligini rivojlantirish, uning siyosiy ijtimoiylashuv tizimida bo‘ysunish va muvofiqlashtirishning tizimli aloqalarini amalga oshirish;

- jamiyatning tub siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy o‘zgarishining zamonaviy sharoitlarida davlat tomonidan siyosiy ijtimoiylashuv funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish yoshlarni mamlakatning siyosiy hayotiga jalb qilish uchun yoshlarni fuqarolik pozitsiyasini o‘stirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Siyosiy ijtimoiylashuv institutlarining ta’sirini tahlil qilish davlat siyosatining barcha turlarini va bosqichlarini amalga oshiradigan siyosiy tizimning tashkil etilishi ekanligini tushunishga yordam beradi. Fuqarolarning muayyan "milliy g‘oyani", mafkuraviy prinsiplar tizimini, qiymat yo‘nalishlarini va ularni tarjima qilish usullarini va fuqarolarning ongiga kirishini ta’minlash orqali fuqarolarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarni yaratish yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvining asosiy mavzusi va regulyatori bo‘lib xizmat qiladi;

- zamonaviy jamiyatda siyosiy ijtimoiylashuv sohasida davlat faoliyatini optimallashtirish zarurati shundan iboratki, bu jarayon qarama-qarshiliklar bilan ajralib turadi. Bir tomondan, jamiyatni demokratlashtirish insonning siyosiy rivojlanishi, uning o‘zini o‘zi anglashi va siyosatda faol ishtirok etishi kerakligini, ikkinchi tomondan siyosiy ijtimoiylashuv institutlarining samarasiz va kamroq konstruktiv faoliyatiga xalaqit berayotgani, natijada ko‘pchilik yoshlarning siyosiy befarqligi, hokimiyatdan ajralib chiqishi, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etishidan iborat.

- zamonaviy jamiyatda yoshlarni siyosiy ijtimoiylashuv holatini tahlil qilish so‘nggi va umuman olganda jamiyatning juda katta qismi ekanligini ko‘rsatdi. Natijada, ayrim yoshlar siyosati, siyosiy hayotga qo‘shilish darajasi va bugungi jamiyatda turli mafkuraviy va siyosiy yo‘nalishlarga yo‘naltirilgani bilan bir-biridan farq qiladi. Yoshlarning o‘z-o‘zini tashkil etishi muhimligini anglash bilan bir vaqtda, o‘z manfaatlarini himoya qila oladigan yoshlar tashkilotlarida ham shaxsiy ishtirok etish istagi yo‘qligi ham ularning siyosiy ijtimoiylashuvidagi katta to‘siq bo‘lib qoladi.

Yoshlarning demokratiya g‘oyasiga va uning qadriyatlarini qabul qilishiga bo‘lgan mehrli munosabati innovatsion shakllarda faoliyatning past ko‘rsatkichi ham siyosiy ijtimoiylashuvga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu qarama-qarshiliklarning mavjudligi o‘tish davri jamiyatining obyektiv sharoitlariga, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy-psixologik va o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Ba’zi qo‘shni mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy tahdid, ulardagi noqulay demografik holat, yoshlarning sog‘lig‘i yomonlashishi, yoshlarning hayot sifatining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lgan noroziliklari, yoshlarning ijtimoiy intellektual resurs sifatida rolini sezilarli darajada kamaytiradi va yoshlarning siyosiy ongida o‘zgarish holati va yo‘nalishini belgilaydi.

Siyosiy tizimni saqlashga hissa qo‘shadigan ko‘plab omillardan biri, yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi muhim o‘rin tutadi, chunki hech bir tizim jamiyatda keng tarqalgan siyosiy bilim, qadriyatlar va nuqtai nazarni rivojlantira olmasa, yetarli integratsiya va barqarorlik darajasiga erisha olmaydi. Bu siyosat subyekti sifatida yoshlarning shakllanishida, tegishli qobiliyat va qobiliyatlarga ega bo‘lishida va shu bilan bog‘liq huquq va majburiyatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy ijtimoiylashuvdir. Bir tomondan, yoshlar muayyan jamiyatga xos bo‘lgan muayyan odatlarni, psixologik moslashuv mexanizmlarini, ijtimoiy normalarni va

qadriyatlarni o‘rganadi. Boshqa tomondan, jamiyat, yosh avlodga yuqorida aytib o‘tilgan barcha narsalarni berib, ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuviga va ularda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. –Б.43-44.

2. Қирғизбоев М. Сиёсий партиялар нега фаоллашмаяпти? /Ҳуррият газетаси, 1999. 28 июль, 3 август сони.

3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: “O‘zbekiston”, 2021. –Б.254.

4. Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах.-М.:Прогресс-Традиция, 2004.-С.11.

5. Jouvenel de Bertrand. Sovereignty. Chicago, Univercity of Press, 1963.-P.123.

6. Тошбоев О. Келажак қайғуси ёҳуд глобаллашув жараёнлари // Тафаккур. №1. 2007. –Б.19.

7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 113.

8. Экономическая интеграция.; Арбатов А. Национальная безопасности России в многополярном мире. // Ж. Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2000.– №10. –С. 21–28.

Xursandov A.S., Muradullayev A.A. Yangi O‘zbekistonda yoshlarni siyosiy ijtimoiylashuvining ahamiyati

Ushbu maqolada yoshlarni siyosiy ijtimoiylashuvi va yoshlarga oid davlat siyosati haqida tushuncha, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, yoshlarni ta’lim-tarbiya olishlari va faoliyatlariga oid olib borilayotgan islohotlar hamda yoshlarda ijtimoiy faollikni shakllantirish masalalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: siyosat, siyosiy ijtimoiylashuv, yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, davlat, vatanparvarlik ruhi, islohot, milliy identifikatsiya, siyosiy ta’lim.

Хурсандов А.С., Мурадуллаев А.А. Значение политической социализации молодёжи в Новом Узбекистане

В статье рассмотрены понятия политическая социализация молодёжи и государственная молодёжная политика, вопросы воспитания молодёжи в духе патриотизма, повышения эффективности образовательного и воспитательного процесса, а также раскрыта роль активного участия молодёжи в социальной жизни общества.

Ключевые слова: политика, политическая социализация, молодёжь, государственная молодёжная политика, государство, дух патриотизма, реформа, национальная идентификация, политическое учение.

Xursandov A.S., Muradullayev A.A. The significance of political socialization of youth in New Uzbekistan

In this article envisaged the notions of political socialization of youth and state policy on youth, the matters of education of the youth in a patriotic spirit, the activity of increasing in educational process with youth, the significance and ensuring of active participation of youth in social life of society.

Key words; policy, political socialization, youth, state policy on youth, state, patriotic spirit, reform, national identification, political doctrine.